

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

«Himoyaga qo‘yiladi»

Kafedra mudiri, i.f.d., professor

Urazov K.B.

« ____ » _____ 2019

OLIMOV MUHAMMAD ODINABOEVICHNING

“KORXONALAR INVESTITSION FAOLIYATI AUDITI”

(“PULSAR GROUP BREWERY” MCHJ QQ)

mavzusidagi

5A230902 - «Audit» (tarmoqlar bo‘yicha) mutaxassisligi

Magistr darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar dotsent Musaev H.N.



SAMARQAND – 2019

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
I Bob. Korxonalar investitsiya faoliyati auditining konseptual asoslari	8
1.1. “PULSAR GROUP BREWERY” mas’uliyati cheklangan jamiyat shakldagi qo‘shma korxona tavsifi	8
1.2. Korxonalarda investitsiyalar auditining vazifalari va xususiyatlari.....	15
1.3. Investitsion faoliyati auditining axborot manbalari.....	19
II Bob. Korxonalar investitsiya faoliyati auditining tashkiliy masalalari.....	26
2.1. Korxonalarda investitsion faoliyati auditini tashkil etish.....	26
2.2. Investitsion faoliyati auditining ketma-ketligi.....	32
2.3. Investitsion faoliyati auditining natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.....	43
III Bob. Korxonalar investitsiya faoliyati auditining metodologik jihatlar va uni takomillashtirish.....	47
3.1. Korxonalar investitsiya faoliyati auditining xalqaro standartlaridan foydalanish.....	47
3.2. Korxonalar investitsiya faoliyati auditining usullarini takomillashtirish	56
3.3. Investitsiyalar auditida xorijiy tajribadan foydalanish masalalari.....	65
IV Bob. Korxonada hayot xavfsizligini ta’minlash masalalari.....	66
Xulosa.....	71
Foydalangan adabiyotlar ro’yxati.....	76
Ilovalar.....	77

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida respublikamiz iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda, yangi tarmoqlar bunyod etilmoqda, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni oshib bormoqda. Iqtisodiy o'sishga katta miqdorida investitsiyalar ajratilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotiga safarbar etilgan yirik miqyosdagi investitsiyalar import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishning barpo qilinishi va yangi mahsulot turlarining o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lib kelmoqda.

Bunday o'zgartirishlar jahon xo'jaligiga kirib borish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Investitsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida ichki va tashqi moliyaviy manbalarning barcha shart-sharoitlarini hisobga olgan holda investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning kelajagini belgilaydi. Mamlakatimiz investitsiya faoliyatida, ayniqsa, xorijiy investitsiyalar ishtiroki kuchayib bormoqda.

3 noyabr kuni Vazirlar Mahkamasida 2018 yilning kutilayotgan yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi, soliq va byudjet siyosati konsepsiyasi, Davlat byudjeti loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish.

Investitsiya xarajatlari 11,9 trillion so'm miqdorida rejalashtirilmoqda. Ushbu mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlari bilan belgilangan strategik muhim loyihalarni, shu jumladan, ichimlik suvi ta'minoti, suv xo'jaligi obyektlarini, transport-kommunikatsiya infratuzilmalarini hamda ta'lim va tibbiy-ijtimoiy muassasalarni rivojlantirish va rekonstruksiya qilish dasturlarini amalga oshirishga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, xorijiy sarmoyadorlar O'zbekistonga ko'proq qiziqish uyg'otmoqda - investitsiya oqimi o'tgan yili 11,3 foizga oshib, 3,7 milliard dollarni tashkil etdi.

2016 yilda O'zbekistonda qiymati 5,2 milliard dollarga baholangan 164 yirik investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Tanqidiy tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishdagi vaziyatni talab qiladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushi 30 foizgacha qisqardi.¹

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev bevosita xorijiy investitsiyalar to'g'risida 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida investitsiya xaqida:²

- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;
- bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish;
- xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 3 noyabr kuni Vazirlar Mahkamasida 2018 yilning kutilayotgan yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi, soliq va byudjet siyosati konsepsiyasi, Davlat byudjeti loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish ma'ruzasi.

² 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi. O'zbekiston Prezidenti 7-fevral kungi farmoni

o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish.

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyalar asosida asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;
- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;
- yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo‘jalik birlashmalarining mablag‘larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish;

2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollariga teng 649 investitsion loyihani amalga oshiradigan tarmoq dasturlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Natijada kelgusi 5 yil ichida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning YaIMdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash sanoati ulushi 80 foizdan 85 foizgacha o'sadi.³

Yuqoridagilardan kelib chiqib iqtisodiyot uchun investitsiyalarning muhim ahamiyat kasb etishi, korxonalarda investitsiyalar hisobi va auditi masalalariga alohida e‘tibor berish ustuvor vazifaga aylanadi. Shu nuqrai-nazardan ushbu kurs ishining mavzusi “Moliyaviy investitsiyalarning auditi” deb nomlandi va mavzuning dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

- Moliyaviy investitsiyalarning to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy natijalarga ta'sir qilishi;
- Moliyaviy investitsiyalarning soliq va soliqqa tortish bazasiga bevosita aloqadorligi;
- Moliyaviy investitsiyalarning boshqa korxonalar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi.

Shunday ekan, moliyaviy investitsiyalarning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi, ular bo'yicha soliq hisob-kitoblarining o'z vaqtida hisoblanishi va amalgam oshirilishini nazorat qilish, ya'ni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish zarur.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Moliyaviy investitsiyalar, ularning iqtisodiy mazmuni, investitsiyalar hisobi va audit masalalariga so'nggi yillarda jiddiy e'tibor berilmoqda. Bu borada O'zbekiston va xojriy olimlari, jumladan, To'lxadjayeva M.M, Urazov K.B., Musayev H.N., Zaynalov J.R., G'ozibekov D.G', Dustmurotov R., Fayziyev Sh., Mamatov Z.T., Ilhomov Sh.I., Toshnazarov S.N., Arens A., Lobbek D.J., Andreev V.D. va boshqalar moliyaviy investitsiyalar auditiga keng to'xtalib, bu mavzuda o'zlarining monografiyalari, o'quv-qo'llanmalari, darsliklari va ilmiy maqolalarini chop ettirmoqdalar.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ishining maqsadi-moliyaviy investitsiyalar auditining nazariy va amaliy jihatlarini alohida xo'jalik yurituvchi subyekt misolida tadqiq etish va uni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Bundan tashqari kurs ishi bajarishdan investitsiyalar hisobi va auditiga oid bilimlarni mustahkamlash ham ko'zda tutilgan.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib magistrlik dissertatsiya oldiga quyidagi vazifalarga e'tibor berildi:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra tasniflash va uni ochib berish;
- investitsiyalar auditining nazariy va amaliy masalalarini yoritish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy investitsiyalar auditining vazifalarini ishlab chiqish;

- korxonada moliyaviy investitsiyalar auditini tashkil etishning metodologik jihatlarini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Izlanishlar obyekti va predmeti. magistrlik dissertatsiyaning obyekti bo'lib, QQ MCHJ «PULSAR GROUP BREWERY hisoblanadi. Izlanishning predmeti esa bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy investitsiyalar auditini tashkil qilish va uni yaxshilashdan iborat.

Ishning tarkibi. Dissertatsiya kirish, to'rta bob va xulosalardan iborat. Ishning kirishida mavzuning dolzarbligi, o'rganishlik darajasi, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ko'rsatilgan. Birinchi bobda korxonalar investitsion faoliyati auditioning konseptual asoslariga qaratilgan Ikkinchi bobda investitsiya faoliyati auditining tashkiliy masalalariga qaratilgan, uchinchi bob esa korxonalar investitsiya faoliyati auditioning metodologik jihatlar va ularni takomillashtirishi o'z joino topgan To'rtinchi bob korxonaning hayot havfsizligiga qaratilgan. Ishning xulosa mavjud va mavzu bo'yicha borilgan tadqiqot natijalari umumlashtirilgan va tavsiyalar berligan.

Tadqiqot usullari. Magistrlik dissertatsiyasining tayorlashda xujatlashtirish, guruhlash, taqqoslash, balans, schyotlar va ikkiyoqlama yozuv, audit usullardan keng foydalangan.

Magistrlik dissertatsiya ishinchliligi va sinovlardan o'tganligi. Dissertatsiya natijalari 2 xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilindi va ijobiy baholandi.

Dissertatsiya natijalarining chop etilishi. Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'yicha 1 ta patent (DGU №05536) va 4 maqola chop etildi.

Magistrlik dissertatsiyasi natijalari joriy etilishi. Magistrlik dissertatsiya "PULSAR GROUP BREWERY" MCHJ QQ buyurtma asosida bajarilgan va uning natijalari korxonada joriy etildi BX-2/2019 sonli xo'jalik shartnoma.

I. BOB. KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATI AUDITINING KONSEPTUL ASOSLARI

1.1. “PULSAR GROUP BREWERY” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN SHAKLDAGI QO‘SHMA KORXONA TAVSIFI

Moliyaviy investitsiyalar audit qilinganda auditor bir qancha axborot manbalaridan foydalanadi. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvda foydalaniladigan axborot manbalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- * moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va soliqqa tortishni hamda auditorlik tekshiruvdan o‘tkazishni tartibga soladigan me’yoriy hujjatlar;

- * buxgalteriya hisobotlari;

- * korxonaning hisob siyosati;

- * moliyaviy investitsiyalarni hisobga oladigan sintetik va analitik hisob registrari;

- * moliyaviy investitsiyalarni aks ettiradigan dastlabki hujjatlar.

Korxonaning hisob siyosati to‘g‘risidagi buyrug‘i bo‘yicha auditor quyidagilar bilan tanishishi mumkin:

- * boshqa korxonalarning ustav kapitalida ishtirok etishdan olingan daromadlarni oddiy yoki operatsion faoliyatdan olingan daromadlar qatorida tan olish;

- * moliyaviy investitsiyalarni aks ettirish uchun foydalaniladigan ishchi schyotlar rejasi;

- * qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobi shakli va korxona buxgalteriyasida tuziladigan hisob registrari ro‘yxati;

- * moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish bilan bog‘liq dastlabki hujjatlarning hujjatlar aylanishi (hujjatlar aylanish grafigi) bilan;

- * korxonaning moliyaviy investitsiyalari, qarz shartnomalarini rasmiylashtirishga ruxsat etilgan shaxslar ro‘yxati; moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish uchun korxona tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastlabki

hujjatlar shakllari;

Buxgalteriya hisobining yagona jurnal-order shaklidan foydalanadigan korxonalarda jurnal-orderlar qo'llanilib, ularda hisobga qabul qilingan dastlabki hujjatlardagi axborotlar to'planadi va muomalalar aks ettiriladi.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda kompyuter dasturlaridan foydalanilganda schyotlar bo'yicha debet va kredit oborotlarining bosmadan chiqarilgan yozma nusxasining ma'lumoti tuziladi.

Moliyaviy investitsiyalarning analitik hisob registri sifatida «Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish daftari» tavsiya etiladi.


Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalar quyidagi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi: ta'sis shartnomasi (boshqa korxonalar ustav kapitaliga investitsiyalar qilishda), qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasi, qarz shartnomasi, depozit jamg'arma uchun shartnoma, qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish shartnomasi, oddiy shirkat shartnomasi (hamkorlikdagi faoliyat shartnomasi) va boshqalar. Auditor ushbu ko'rsatilgan shartnomalar qoidalarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq muomalalarni tartibga soladigan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishini tekshirishi lozim.

Moliyaviy investitsiyalar auditida ma'lumot manbasi sifatida foydalaniladigan dastlabki hujjatlarga quyidagilar kiradi: qimmatli qog'ozlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hamkorlikdagi faoliyatga qo'shiladigan ulushni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, umumiy ishni yurituvchi hamkor tomonidan mulklarni qabul qilish to'g'risidagi avizo, pul shaklidagi ulushlarni o'tkazish to'g'risidagi to'lov-topshiriqnomasi va bank ko'chirmasi (naqd pulsiz hisob-kitoblarda) yoki kassa chiqim orderi va kassa kirim orderining kvitansiyasi (naqd pullik hisob-kitoblarda), qimmatli qog'ozlar qiymatini to'lash uchun beriladigan mulklar (aktivlar)ni rasmiylashtirish schet-fakturasi va nakladnoyi, qimmatli qog'ozlar va qat'iy hisobda turadigan blankalarning inventarizatsiya ro'yxati va boshqa hujjatlar.

Yuqoridagi axborot manbalari va ularda aks ettirilgan ma'lumotlar auditorlarni axborotga bo'lgan talablarini to'la qondirishi va audit jarayonida

auditorlar ushbu axborotlar bilan ta'minlanishi auditning sifatini oshiradi va korxona uchun ham foydali bo'ladi.

Korxonaning barcha aktivlarini audit qilganda ma'lum ketma-ketlikka rioya qilinadi. Shu jumladan, moliyaviy investitsiyalar auditining ketma-ketligi ham o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Bu quyida o'z aksini topadi (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy investitsiyalar auditining ketma-ketligi.


Qo'shma korxonasi O'zbekiston - Chexiya mas'uliyati cheklangan qo'shma korxonasi «Pulsar Group Brewery» Ltd. kompaniyasi Yanvar 18, 2014 umumiy yig'ilishining qarori bilan yaratgan va qator 0137 Ilova №1 ostida hokimiyati organlarida ro'yxatdan o'tgan.

QK «Pulsar Group Brewery» "mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi, Kompaniya Ustav amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshiradi. Korxonaning maqsadi foyda olishdir. QK «Pulsar Group Brewery» Ltd. quyidagi faoliyatni amalga oshirish ustav maqsadlarini erishish uchun:

- Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish va sotish;
- marketing va reklama;
- transport, ekspeditorlik;

- Xayriya;
- Tashqi iqtisodiy faoliyat;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari.

Agar korxona balansini umuman grafika shaklida ko'rib chiqsak, hisobot davrining oxirida balans valyutasi balans bilan solishtirganda ancha yuqori ekanligini ko'rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. 2018 yil balans valyutasi

Biz hisobot davrida ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulk kompaniyasi yangi asbob-uskunalar xarid qilish orqali, shu jumladan, 20 028 545,00 ming so'mga yoki 53,82% ga o'sdi - 9916 584,00 ming so'mni yoki 2852,84%, mehnat, kapital o'sishi ortdi - 11 120 020,00 ming so'mga yoki 56.84% da ... Boshqa so'zlar bilan aytganda, ish poytaxti davrida asosiy kapitalga ortiq mablag 'investitsiya qilindi. Bu holda, moddiy aylanma aktivlari 8 648 784,00 0 ming o'sdi. so'm. 2.41%, shu jumladan, pul 50 000,00 ming oshdi aksincha tomonidan -3 036 117,00 yoki -97,69%, va qisqa muddatli investitsiyalarni kamaydi. Som. yoki 100.00% ga teng.

Umuman olganda, jami aktivlarning tuzilmasi mavjud aktivlarning ulushi sezilarli darajada oshganligi bilan xarakterlanadi, bu esa deyarli 56,84% ni tashkil etdi.

Xarajatlar tarkibi batafsil bo'lishi kerak, ya'ni. tahlilni yanada chuqurlashtirish. Moddiy aktivlarni batafsil o'rganib chiqish zarur, buning natijasida 100,00% ga pasayish kuzatildi.

Balansning passiv qismi majburiyatlarning ustun hissasi bilan ajralib turadi va ularning umumiy hajmidagi ulushi joriy yilning birinchi yarmida 191,72% ga ortdi. Aylanma mablag'larning o'z mablag'lari ulushi 19,25% ga kamaydi, bu esa tashkilot faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.


Hisobot davrida qarz mablag'lari tarkibi bir qator o'zgarishlarga duch keldi. Shunday qilib, yetkazib beruvchilarga uzoq muddatli kreditorlik qarzlari va hokazolarning ulushi -67,81%, qisqa muddatli hisob-kitoblar 287,05%, debitorlik qarzlari 649,81%

"Pulsar Group Brewery" MChJ QKda uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarning quyidagi ulushi mavjud (3-rasm):




3-rasm. Investitsiya faoliyatining ulushi.

Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, "Pulsar Group Brewery" qo'shma korxonasining investitsion faolligi sezilarli emas va barcha aktivlarning atigi 6 foizini tashkil qiladi (4-rasm).



4-rasm. Korxonaning aktivlariga uzoq muddatli investitsiyalar ulushi.

"Pulsar Group Brewery" qo'shma korxonasining ustav kapitali kompaniyaning majburiyatlariga javob bermaydigan va korxona faoliyati bilan bog'liq zararlar xavfi ostida bo'lgan kompaniya ishtirokchilarining aktsiyalarining nominal qiymatidan iborat. Ustav kapitalining qiymati 7 093 810 AQSH dollariga teng bo'lib, so'mda 5,292,066,380 so'mni tashkil etadi va to'liq to'lanadi. Xorijiy investor Vdeneka Gorjanekning ulushi 52,84 foizni tashkil etadi, ya'ni 5 082 392 so'm so'm ekvivalentida 2 854 929 145 so'm. Jan Dognalning ulushi 85 726 dollarni tashkil etadi, ya'ni 32 973 660 so'mni tashkil qiladi (5-rasm).



5-rasm. Ta'sischilar fondining ustav fondidagi ulushi

Xo'sh, mening tushunchamdagi sarmoyaning mohiyati nima? Investitsiyalar kelgusida foyda keltiradigan muayyan loyihaning kiritilishi hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, ma'lum bir loyihani investitsiyalashdan

oldin birinchi navbatda uning rentabelligini va qaytarib berilishini hisoblash, ikkinchidan, uni amalga oshirish bilan bog'liq barcha mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olish kerak.

Korxonaning investitsiyalarning jalb etilishi va ulardan foydalanish uning moliyaviy ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi (6-rasm)

Ko'rsatkichlar nomi	Nisbiy qiymatlar%					
	2018 Boshida		2018 Oxirida		O'zgarish	
	Доходы	Расходы	Доходы	Расходы	Доходы	Расходы
Mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan tushgan tushum	33 574 708	xxx	17 585 214	xxx	-15 989 494	xxx
Sotishning narxi (tovarlar, ishlar va xizmatlar)	xxx	20 816 563	xxx	17 076 409	xxx	-3740154
Sotishdan tushgan foyda (zarar) mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) (010-020-bet)	12 758 145	-	508 805	-	-12 249 340	xxx
Davr xarajatlari, jami	xxx	12 909 249	xxx	8 960 099	xxx	-3949150
Boshqa operatsion daromadlar	78 529	xxx	5 566 250	xxx	5 487 721	xxx
Operatsion faoliyatdan olingan daromad (zararlar)	0	72575	0	2885044	0	xxx
Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar, jami	1 367 359	xxx	5 439 679	xxx	4 072 320	xxx
Moliyaviy faoliyat xarajatlari	xxx	673 148	xxx	1 683 738	xxx	1010590
Bosh daromad (zarar) tadbirlar	621 636		870 897	-	249 261	xxx
Daromad (foyda) solig'i bo'yicha daromad (zarar)	621 636	0	870 897	0	249 261	xxx
Daromad solig'i	xxx	49 731	xxx	65 317	xxx	15586
Qolgan boshqa soliqlar va to'lovlar	xxx	45752	xxx	64 446	xxx	18694
Foyda (zarar) hisoboti davr	526 153	-	741 134	-	214 981	xxx

Korxonaning yilning boshida sof foydasi 526 153 million bo'lgan. Yilning oxirida 741 134 so'm bo'ldi, 214 981 so'mga oshdi.

1.2. KORXONALARDA INVESTITSİYALAR AUDITINING VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI

Moliyaviy investitsiyalar auditining asosiy maqsadi - ular bo'yicha muomalalar qonuniy amalga oshirilganligi, to'g'ri baholanganligi va buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilayotganligini tasdiqlash hamda boshqa aktivlar tekshiruvidagi kabi quyidagilarni ta'minlashdan iborat:

- to'liqligi - barcha moliyaviy investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va hisobotida to'liq aks ettirilishi, hisobga olinmay qolgan moliyaviy

- investitsiyalar yo'qligi;

- korxona tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar va berilgan qarzlarning barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida to'liq aks ettirilishi;

- moliyaviy investitsiyalar hisobga olinadigan sintetik schyotlar qoldig'i va oborotlarining tegishli analitik hisob schyotlari qoldiq va oborotlariga mos kelishi;

- schyotlar bo'yicha qoldiq va oborotlarning buxgalteriya hisobi registrlaridan Bosh daftarga va buxgalteriya hisobotlariga to'liq hajmda o'tkazilishi;

- moliyaviy investitsiyalar kirimi va hisobdan chiqarilish faktlarining barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirilishi;

- moliyaviy investitsiyalar harakatiga doir barcha muomalalarning buxgalteriya hisobida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishi;

- mavjudligi - barcha moliyaviy investitsiyalar korxona uchun ahamiyatli bo'lib, balans tuzish sanasiga mavjud va kelajakda daromad

- keltiradi;

- moliyaviy investitsiyalar mavjudligi belgilangan tartibda o'tkazilgan inventarizatsiya va zarur dastlabki hujjatlar bilan tasdiqlangan;

- huquq va majburiyatlar - korxona moliyaviy investitsiyalar uchun tegishli huquqlarga ega va ushbu huquqlar bilan bog'liq xavf-xatar uchun mas'uldir;

- buxgalteriya hisobida aks ettirilgan moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar va berilgan qarzlari) korxonaga qonun asosida tegishlidir;

-buxgalteriya balansida aks ettirilgan qimmatli qog'ozlar korxonaga mulkiy huquq asosida tegishli bo'lib, tegishli huquq talablariga mos shartnomani amalga oshirish natijasida olgan hamda korxona qimmatli

qog'ozlar olinganligini tasdiqlovchi barcha zarur guvohliklarga ega; - buxgalteriya hisobi schyotlaridagi barcha yozuvlar amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan;

-isbotlovchi va dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan;

-moliyaviy investitsiyalarga doir barcha muomalalar amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan munosabatlar sharoitidan kelib chiqadi;

-moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalarni amalga oshirish belgilangan tartibda vakolatli shaxslar tomonidan ruxsat etilganligi;

-baholashlar - moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar) buxgalteriya hisobi va hisobotida me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq baholangan;

-chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlarni so'mda baholash amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq o'tkazilgan;

-qimmatli qog'ozlarni sotib olish usuliga ko'ra ularning haqiqiy qiymati me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgan;

-qimmatli qog'ozlar qiymati buxgalteriya hisobotiga kiritish uchun me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq va to'g'ri hisoblab chiqarilgan (bozor bahosi pasayishini hisobga olgan holda);

-qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushum buxgalteriya hisobida dastlabki hujjatlardagi ma'lumotlarga mos bahoda aks ettirilgan;

-aniqligi - moliyaviy investitsiyalarga doir xarajatlar buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq hisobga olingan, buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari sintetik hisob registrlaridagi yozuvlarga mos keladi:

dastlabki hujjatlarda, buxgalteriya hisobi registrlarida, ma'lumotlarni buxgalteriya hisobotlariga o'tkazishda ko'rsatkichlarning arifmetik aniqligiga rioya qilingan;

-chet el valyutasida ifodalangan qimmatli qog'ozlarning so'mdagi qiymatini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan va

muomala sodir bo'lgan kunda amalda bo'lgan chet el valyutasi kursidan foydalanilgan; buxgalteriya hisobotida haqiqiy ma'lumotlar asosida aniqlangan moliyaviy natijalar aks ettirilganligi;

-hisob davrining cheklanganligi - moliyaviy investitsiyalarni hisobga qabul qilish va hisobdan chiqarishga doir barcha muomalalar tegishli hisob davrida hisobga olingan;

-taqdim qilish va bayon qilish - barcha moliyaviy investitsiyalar to'g'ri turkumlangan va buxgalteriya hisobotida mohiyati ochib berilgan:

-moliyaviy investitsiyalar turlari va qaytarish muddatlariga ko'ra turkumlangan;

-moliyaviy investitsiyalarni sotish va qaytarish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda to'g'ri turkumlangan;

-moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi axborotlar buxgalteriya hisobotlariga beriladigan tushuntirishlarda ochib berilgan va h.k.

Belgilangan maqsadga muvofiq, auditor auditorlik tekshiruvining quyidagi asosiy vazifalarini belgilaydi:

-barcha hujjatlar o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilganligini aniqlash;

-qo'yilmalar to'g'ri baholanganligi va buxgalteriya hisobi to'g'ri yuritilayotganligini tasdiqlash;

-moliyaviy investitsiyalar bo'yicha daromadlar to'g'ri va o'z vaqtida hisoblanishi va olinishini aniqlash;

-uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar bo'yicha buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari haqiqiylikini tasdiqlash.

Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish vaqtida hal etiladigan vazifalar 6.1-jadvalda keltirilgan.

Tekshiriladigan masalalar bo'yicha etarli dalillarga ega bo'lish ko'rsatilgan faktlarni mustaqil baholash, yo'l qo'yilgan xato - kamchiliklarni hamda amaldagi me'yoriy hujjatlar va buxgalteriya hisobi qoidalaridan chetga chiqishlarni aniqlashga imkon beradi.

Moliyaviy investitsiyalar auditining ma'lumot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ta'sis hujjatlardan nusxalar;
- aktsiyadorlar reestlaridan ko'chirmalar;
- korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i;
- moliyaviy investitsiyalarni aks ettiradigan dastlabki hujjatlar;
- boshqa korxonalarga amalga oshirilgan qo'yilmalar summolari to'g'risidagi guvohnomalar;
- aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar sertifikatlari;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha sotib olish-sotish yoki qabul qilishtopshirish dalolatnomalari;
- depozit shartnomalari;
- qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish daftarlari;
- kirim va chiqim kassa orderlari;
- moliyaviy investitsiyalarni hisobga oladigan sintetik va analitik hisob registrlari;
- buxgalteriya hisobining schetlari: 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schetlar», 5800 «Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schetlar», 4800 «Turli debitorlarning qarzlarni hisobga oluvchi schetlar», 5100 «Hisob-kitob schetidagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schet», 5000 «Kassadagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schet», 5200 «Chet el valyutalaridagi pul mablag'larini hisobga oluvchi schet» va boshqa schet guruhlari bo'yicha hisob registrlari (jurnal - orderlar, Bosh kitob va boshqalar).

Korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i bo'yicha auditor quyidagilar bilan tanishishi mumkin:

- boshqa korxonalarning ustav kapitalida ishtirok etishdan olingan daromadlarni oddiy yoki operatsion faoliyatdan olingan daromadlar qatorida tan olish;
- moliyaviy investitsiyalarni aks ettirish uchun foydalaniladigan ishchi schyotlar rejasi;

- qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi shakli va korxona buxgalteriyasida tuziladigan hisob registrlari ro'yxati;
- moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish bilan bog'liq dastlabki hujjatlarning aylanishi (hujjatlarning aylanish grafigi) bilan;
- korxonaning moliyaviy investitsiyalari, qarz shartnomalarini rasmiylashtirilishga ruxsat etilgan shaxslar ro'yxati; moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish uchun korxona tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastlabki hujjatlar shakllari.

Buxgalteriya hisobining yagona jurnal-order shaklidan foydalanadigan korxonalarda jurnal-orderlar qo'llanilib, ularda hisobga qabul qilingan dastlabki hujjatlardagi axborotlar to'planadi va muomalalar aks ettiriladi.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda kompyuter dasturlaridan foydalanilganda schyotlar bo'yicha debet va kredit oborotlarining bosmadan chiqarilgan yozma nusxasining ma'lumoti tuziladi.

Moliyaviy investitsiyalarning analitik hisob registri sifatida «Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish daftari» tavsiya etiladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalar auditi quyidagi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi: ta'sis shartnomasi (boshqa korxonalar ustav kapitaliga investitsiyalar qilishda), qimmatli qog'ozlar oldi-sotti shartnomasi, qarz shartnomasi, depozit jamg'arma uchun shartnoma, qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish shartnomasi, oddiy shirkat shartnomasi (hamkorlikdagi faoliyat shartnomasi) va boshqalar. Auditor ushbu ko'rsatilgan shartnomalar qoidalarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq muomalalarni tartibga soladigan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishini tekshirishi lozim.

1.3. INVESTITSION FAOLIYATI AUDITINING AXBOROT MANBALARI

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishlari belgilab olindi.

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berishda ko'plab iqtisodchi olimlar o'rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Jumladan, investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etgan prof. D.G'. G'ozibekov ularga quyidagicha ta'rif bergan: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda capital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi"⁴ Prof. N.H. Haydarovning fikricha: "Investitsiya –bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z boyliklarini qonun doirasida bo'lgan har qanday tadbirkorlik faoliyatiga sarflashidir!" O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi (qayta tahrir qilingan) qonuniga ko'ra "Investitsiya –iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqdir" sifatida ta'riflangan.

Shundan kelib chiqib, "Investitsiya" deganda daromad (foyda) olish va ijtimoiy nafga erishish maqsadida moddiy va nomoddiy ko'rinishdagi aktivlar va pul mablag'larini turli sohalarga qonun doirasida sarflash tushuniladi.

Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar mavjud bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanishlari va ularni investitsiya faoliyatiga jalb qilgan holda qo'shimcha foyda olishlari muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, korxonalarning boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlariga sarflagan mablag'lari (investitsiyalari)ni hisobda to'g'ri aks ettirish va ular bilan bog'liq hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'g'ri olib boorish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa bevosita ushbu obyektlarni hisobga olish, ular bo'yicha soliqlarni to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishini tekshirish, ya'ni audit qilish muhimligini ko'rsatadi. Shuning uchun investitsiyalar auditning muhim obyekti hisoblanadi. Birinchidan, qo'yilish obyektiga qarab iqtisodiyotning bo'g'inlariga ko'ra mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiyalar makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot darjalaridagi investitsiyalarga bo'linadi. Makroiqtisodiyot

⁴ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –T.: Moliya, 2003, 26-bet.

darajasidagi investitsiyalar bu davlat investitsiya dasturida o'z aksini topgan bo'ladi. Ular davlat investitsiyalari hisoblanadi. Mikroiqtisodiy darajadagi investitsiyalar xalq xo'jaligining quyi bo'g'ini bo'lgan korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchidan, kiritilish doirasiga ko'ra ichki va tashqi investitsiyalar. Ichki investitsiyalar deyilganda, mamlakatning ichidagi investorlar, ichki manbalar va davlat investitsiya dasturida ko'zda tutilgan investitsiyalar tushuniladi. Tashqi investitsiya agar u makro darajada bo'lsa, boshqa mamlakatlardan, xorijiy investorlar tomonidan kiritilgan mablag'lar, agar u mikrodarajada bo'lsa, korxonalarga boshqa korxonalardan kiritilgan sarmoyalar tushuniladi. Uchinchidan, kiritilish sohalariga ko'ra investitsiyalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalariga kiritilgan investitsiyalarga bo'linadi. To'rtinchidan, kiritilish muddatiga ko'ra uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar mavjud. Uzoq muddatli investitsiyalarga bir yildan ko'p muddatga kiritiladigan barcha turdagi investitsiyalar kiradi. Qisqa muddatli investitsiyalar esa bir yilgacha bo'lgan muddatda kiritiladi. Beshinchidan, kiritilish shakliga ko'ra investitsiyalar nominal va real investitsiyalarga bo'linadi. Nominal investitsiyalar deganda pul shaklida mablag'lar majmuasi tushunilsa, real investitsiyalar deyilganda pul mablag'larining ishlab chiqarish omillariga aylanishi tushuniladi. Oltinchidan, kapitallashuviga ko'ra investitsiyalar capital va moliyaviy investitsiyalarga bo'linadi. Kapital investitsiyalar korxonalarning kelajakda asosiy vositasiga yoki ularning balans qiymatini oshishiga olib keladigan mablag'lardir. Moliyaviy investitsiyalar esa qaytarib olinadigan va ma'lum vaqtgacha qo'shimcha daromad olish maqsadida boshqa korxonalarga kiritiladigan mablag'lar hisoblanadi. Moliyalashtirish manbasiga ko'ra o'z mablag'lari evaziga va qarz mablag'lari evaziga amalga oshiriladigan investitsiyalar bo'ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashuvi va liberallasuvi korxonalarning moliya bozorlarida ham faol ishtirok etish imkoniyatini yaratmoqda. O'z xarakteriga ko'ra moliyaviy investitsiyalar korxonalarning tashqi investitsiyasiga kiradi. Ushbu turdagi investitsiyalarga prof. K.B. Urazov quyidagicha ta'rif bergan: "Moliyaviy investitsiyalar –bu korxonalarning boshqa korxonalarga ularning quvvatini oshirish

va buning evaziga kelgusida o'zlari ham naf ko'rish, qo'shimcha daromad olish maqsadida kiritgan mablag'lari majmuasi".⁵ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 12-son BHMSda esa bu investitsiyalarga "Moliyaviy investitsiyalar –xo'jalik yurituvchi subyekt tasarrufidagi daromad olishga (foiz, royalty, dividend va ijara haqi shaklida) mo'ljallangan, investitsiya qilingan sarmoya qiymatining ortishi yoki investitsiya qiluvchi kompaniya boshqa naf olish uchun foydalaniladigan aktivlar" deb ta'rif berilgan.⁶

Moliyaviy investitsiyalar turli belgilariga qarab tasniflanadi (1.1.2-chizma).

Muddatiga ko'ra uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar mavjud. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar bir yildan ortiq muddatda amalga oshiriladigan investitsiyalar. Qisqa muddatli investitsiyalar –muomala muddati 12 oydan oshmaydigan va oson realizatsiya qilinbadigan investitsiyalar. Kiritilish yo'nalishiga ko'ra moliyaviy investitsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlarning turlari bo'yicha alohida guruhlanadi. Jumladan quyidagilar:

- Aksiyadorlik jamiyatlariga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.
- Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.
- Chet el kapitaliga ega korxonalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.
- Qaram xo'jalik jamiyatlariga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.
- Boshqa turdagi jamiyatlarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.

Ko'rinishi bo'yicha barcha moliyaviy investitsiyalarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- Qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar.
- Qarz sifatida kiritilgan investitsiyalar.

⁵ Urazov K.B. Investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortilishi. —T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2003, 10-bet.

⁶ O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. —T.: "Norma", 2010, 197-bet.

- Kredit sifatida kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.
- Ta'sis badali sifatida kiritilgan moliyaviy investitsiyalar.

Bulardan tashqari 1.1.1-chizmada keltirilgan moliyaviy investitsiyalarning boshqa turlari ham mavjud.

Moliyaviy investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar sotib olish yo'li bilan kiritiladi. 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida»gi qonuniga muvofiq **«qimmatli qog'ozlar** - bu ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend yoki foiz ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir». Yuqorida qayd etilgan qonunga ko'ra, qimmatli qog'ozlarga:

- ◆ aksiyalar;
- ◆ obligatsiyalar;
- ◆ xazina majburiyatlari;
- ◆ depozit va xazina sertifikatlar;
- ◆ veksellar;
- ◆ hosilaviy qimmatli qog'ozlar kiradi.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bugungi kunda moliya bozorlarida juda keng tarqalmoqda. Ular quyidagi uch turga bo'linadi (7-rasm).



7.-rasm. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning turlari.

Option (lotincha *optio* soʻzidan olingan boʻlib, tanlov degan maʼnoni anglatadi) - bu bitimda ishtirok etayotgan tomonlarning biriga qimmatli qogʻozlar maʼlum bir miqdorini muayyan vaqt mobaynida belgilangan narxda sotib olish yoki kontragentga sotish huquqini beruvchi shartnomadir. Kontragent esa, mukofot evaziga ushbu huquqni amalga oshirish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

Varrant (nemischa *warrant* soʻzidan) - bu uning egasi maʼlum muddat davomida yoki maʼlum bir kunda varrantlar emitenti tomonidan dastlabki chiqarilgan qimmatli qogʻozlarni harid qilish huquqini olganligi tasdiqlovchi hujjat.

Fyuchers (inglizcha *future* soʻzidan olingan boʻlib, kelajak maʼnosini anglatadi) kelishilgan miqdordagi qimmatliklarni maʼlum vaqt mobaynida bitim tuzish vaqtida belgilangan narxda yetkazib berish toʻgʻrisidagi shartnomalarni oʻzida namoyon qiladi.

Respublikamiz amaliyotida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni yoʻnaltirishning asosiy vositasi aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qogʻozlarini harid qilish hisoblanmoqda.

Umuman olganda, moliyaviy investitsiyalar korxonalarning boʻsh pul mablagʻlaridan samarali foydalanishlarida muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy investitsiyalardan daromad olinar ekan ularni audit obyekti sifatida tan olish va nazorat (auditorlik nazorat) qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy investitsiyalar auditining maqsadi, vazifalari, ketma-ketligi va boshqa xususiyatlari toʻgʻrisida keyingi sahifalarda kengroq maʼlumot beriladi (8-rasm).

Qimmatli qog'ozlar mazmuni va turlari

Aksiya (gollandcha <i>actie</i> so'zidan olingan bo'lib, qimmatli qog'oz degan ma'noni anglatadi) - bu aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo'shganlikdan guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va, odatda, ushbu jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.	Obligatsiya (lotincha <i>obligatio</i> so'zidan olingan bo'lib, majburiyat ma'nosini anglatadi) - bu uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi, unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.	Xazina majburiyatlari - bu ularning egalari tomonidan byudjetga pul mablag'larini berganliklarini tasdiqlovchi hamda ushbu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida belgilangan daromadni olish huquqini beruvchi davlat qimmatli qog'ozlaridir. Ular jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir.	Depozit sertifikatlari (inglizcha <i>certificate of deposit</i>) - bu pul mablag'larini omonatga qo'yilganligi to'g'risida, omonatchiga belgilangan muddat tugagandan so'ng depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasasining guvohnomasidir.	Veksel (nemischa <i>Wechsel</i> so'zidan) - bu veksel beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda ko'zda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga ma'lum miqdordagi summani to'lash haqidagi so'zsiz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.	Hosilaviy qimmatli qog'ozlar - bu shartnomalar bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoxud sotish huquqi yoki majburiyatini oladi.
--	---	--	--	--	---

8-rasm. Qimmatli qog'ozlarning turlari va mazmuni

II. BOB. KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATI AUDITINING TASHKILIY MASALALARI

2.1. KORHONALARDA INVESTITSION FAOLIYATI AUDITINING TASHKIL ETISH

Moliyaviy investitsiyalar auditining nazorat muolajalarini rejalashtirishda tekshiruv o'tkazish yo'nalishlarini aniqlash, harakatlar ketma-ketligini, kerakli bo'lgan isbotlar manbalarini belgilash lozim. Aniq tadbirlarni tartibga solish va auditorlik tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida moliyaviy investitsiyalar auditining rejasi (2-jadval) va dasturini (3-jadval) tayyorlash tavsiya etiladi.

2-jadval

Investitsiyalar auditining rejasi

Tekshirilayotgan korxona: QQ MCHJ «PULSAR GROUP BREWERY»

davri 1.03 – 25.03. 20__ y.

Kishi-soat miqdori: 3.

Auditorlik guruhi rahbari: Alimjanova SS

Auditorlik guruhi tarkibi: Alimjanova SS, Olimov MO

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari – 2%.

Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi – 5%.

№	Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish	Mas'ul	Izoh
1	Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish va nazorat qilishning holatini tekshirish.	10.03	Olimov M	
	Moliyaviy investitsiyalar harakatini hisobida aks ettirishga doir muomalalar	10.03	Olimov M	

	sintetik hisobining to'liqligi va to'g'riligi hamda soliq qonunchililiga rioya qilinishini tekshirish.			
	Moliyaviy investitsiyalariga doir daromadlarining hisobda to'liq aks ettirilishi va ularning soliqqa tortilishini tekshirish.	10.03	Olimov M	

Auditorlik guruh rahbari_____

Auditorlik tashkilot rahbari_____

Ishlab chiqilgan tekshiruv dasturiga muvofiq auditor hisobot davri boshidagi va hisobot davri oxiridagi quyidagi balans modda (040, 050, 060, 070, 080 satr)lari ma'lumotlarini mos ravishda 0610 «Qimmatli qog'ozlar» scheti, 0620 «Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» scheti, 0630 «Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar» scheti, 0640 «Xorijiy kapitalga ega bo'lgan korxonaga investitsiyalar» scheti, 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schet ma'lumotlari bilan, shuningdek Bosh daftar bilan, Bosh daftar ma'lumotlarini esa tegishli hisob registrlari xamda dastlabki hujjatlar bilan taqqoslashi zarur. So'ngra investitsiyalar qiymati to'g'ri belgilanganligini tekshirish lozim.

3-jadval

Investitsiyalar auditining dasturi

Tekshirilayotgan korxona: QQ MCHJ «PULSAR GROUP BREWERY»

davri 1.03 – 25.03. 20__ y.

Kishi-soat miqdori: 3.

Auditorlik guruhi rahbari: Alimjanova SS

Auditorlik guruhi tarkibi: Alimjanova SS, Olimov MO

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari – 2%.

Rejalashtirilayotgan jiddiylilik darajasi – 5%.

№	Auditorlik tadbir (muolaja) lar ruyxati	O'tka zish davri	Ijro- chilar	Auditorning ishchi hujjatlari
1	2	3	4	5
1	Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha hisob registrlari ma'lumotlarini tekshirish va ularni Bosh kitob bilan solishtirish	10.03	Olimov M	Qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish daftari, memorial-orderlar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar, Bosh kitob
2	Moliyaviy investitsiyalar to'g'ri tasniflanganligini tekshirish	10.03	Olimov M	Dastlabki hujjatlar
3	Moliyaviy investitsiyalarning balans qiymati to'g'riligini aniqlash	10.03	Olimov M	Dastlabki hujjatlar, balans.
4	Moliyaviy investitsiyalar inventarizatsiyasini o'tkazish va egalik xuquqini beruvchi hujjatlarni tekshirish	10.03	Olimov M	Inventarizatsiya ro'yxatlari, inventarizatsiya dalolatnomalari
5	Bozor qiymati bo'yicha hisobga olingan qisqa muddatli (joriy) moliyaviy investitsiyalarning bozor qiymatidagi o'zgarishlarni to'g'ri aks ettirilishini	10.03	Olimov M	Dastlabki hujjatlar, birja kotirovkalari bo'yicha ma'lumot

	tekshirish			
6	Moliyaviy investitsiyalar haqiqatdan ham amalga oshirilganligini tekshirish: a) hujjatlardagi tegishli imzolar to'g'riligi; b) moliyaviy investitsiyalar miqdori to'g'ri aniqlanganligi va hisobga to'liq kirim qilinganligi/	10.03	Olimov M	Shartnomalar, schet-fakturalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish daftari, Bosh kitob, moliyaviy investitsiyalar miqdori to'g'risida boshqa korxonalardan yozma javob xatlari
7	Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha inventarizatsiya ma'lumotlarini tekshirish va ular natijalarini taxliliy hisob natijalari bilan solishtirish	10.03	Olimov M	Inventarizatsiya ro'yxatlari, qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish daftari, memorialorderlar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar
8	Qimmatli qog'ozlar bo'yicha kurs qiymati o'zgarishi, foizlar hisoblanishi, dividendlar va boshqa daromadlar va soliqqa tortish munosabati bilan moliyaviy natijalar to'g'ri shakllanishini tahlil qilish	10.03	Olimov M	Qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish daftari, bank ko'chirmalari, hisoblar, birja kotirovkalari to'g'risida

				ma'lumotlar, hisob regisrlari
9	Qayta baholangan moliyaviy investitsiyalarni sotishda, qayta baholashdagi rezerv kapitali summasi to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish	10.03	Olimov M	Qayta baholash dalolatnomalari, moliyaviy hisobot ma'lumotlari
10	Moliyaviy investitsiyalar hisobdan chiqarilishi bo'yicha operatsiyalar to'g'ri rasmiylashtirilganligi va hisobda aks etilganligini tekshirish a) moliyaviy investitsiyalar hisobdan chiqarilishini, shu jumladan garovga berilganlarini ham tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganish va x.k.	10.03	Olimov M	Hisob-kitob-to'lov qaydnomalari, soliqlar bo'yicha hisob- kitoblar, qabul qilish- topshirish dalolatnomalari, yuk xatlari, memorial orderlar, jurnal- orderlar, mashinogrammalar, Bosh kitob

Auditorlik guruh rahbari_____

Auditorlik tashkilot rahbari_____

Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha operatsiyalarning tekshiruvi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi kerak: mavjudligi va to'liqligi, baholash, huquqlar va majburiyatlar, taqdim etish va yoritish.

Mavjudligi va to'liqligi. Ushbu yo'nalish bo'yicha auditorlik tekshiruvi og'zaki so'rovlardan boshlanishi mumkin (hisobot davrida qanday o'zgarishlar

sodir etilgan, qimmatli qog'ozlar qaerda saqlanadi va boshqalar). Agar qimmatli qog'ozlar korxonada saqlansa, ularni inventarizatsiya qilish lozim.

Baholash. Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha xarajatlar hujjatli tasdiqlangan bo'lishi, sintetik va tahliliy hisoblarda aks etilishi lozim.

Huquqlar va majburiyatlar. Moliyaviy investitsiyalarga egalik qilish huquqlari tegishli shartnomalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, qimmatli qog'ozlar va boshqalar bo'yicha tekshiriladi.

Taqdim etish va yoritish. Auditor investitsiyalarning miqdori, yo'nalishi va maqsadga muvofiqligini tahlil qilishi hamda ular hisobda to'g'ri aks ettirilganligini o'rganib chiqishi lozim.

2.2. INVESTITSION FAOLIYATI AUDITINIG KETMA-KETLIGI

Mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarda moliyaviy investitsiyalarning buxgalteriya hisobi bo'yicha muomalalar yagona (umumiy) tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning hisobi qimmatli qog'ozlarning qoplanish muddati, ularning turi (iqtisodiy mazmuni), hisob-kitob shakllari, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun manba va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

21-son BHMS ga muvofiq, 0600 "Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi" schetlarda mamlakatimizda va undan tashqarida tashkil etilgan korxonalarning qimmatli qog'ozlariga, sho'ba, qaram bo'lgan jamiyatlarning hamda chet el sarmoyali korxonalarning nizom kapitali (jamg'armasi) ga uzoq muddatli qo'yilma (investitsiya) larni mavjudligi va harakati to'g'risidagi ma'lumotlar umumlashtiriladi.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida, auditor xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan aktivlarni investitsiyalar qatoriga qo'shish tartibi va ularning turlari 12-son "Moliyaviy investitsiyalar hisobi", 8-son "Umumlashgan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi" O'zbekiston Respublikasi BHMSlari orqali amalga oshirilayotganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Aktsiyalar, obligatsiyalar va shunga o'xshash qimmatli qog'ozlar 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schetining debeti bo'yicha sotib olingan qiymatida hisobga olinadi va qimmatli qog'ozlar hisobga olingan avvalgi schetlari kreditida ularning hisobiga berilgan qiymatliklar aks ettiriladi. Korxona tomonidan uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun mablag'lar o'tkazilsa, lekin hisobot davrida korxonaga ularga egalik huquqini beruvchi tegishli hujjatlar (aktsiyalar, obligatsiyalar, boshqa korxonalarga o'tkazilgan qo'yilmalar summasiga guvohnomalar va boshqalar) olinmasa, bular 0610 "Qimmatli qog'ozlar" schetida alohida ko'rsatiladi. Agarda, korxonalar tomonidan sotib olingan obligatsiya va

boshqa qarz qimmatli qog'ozlar to'liq qiymati nominal qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda har safar ularga to'g'ri keladigan daromad hisoblanganda harid qilish va nominal qiymatlar orasidagi farqi quyidagicha buxgalteriya yozuvlari orqali hisobdan chiqariladi:

Debet 9610 «Foiz ko'rinishidagi xarajatlar» scheti,

Kredit 0610 «Qimmatli qog'ozlar» scheti.

Agarda, korxona tomonidan xarid qilingan obligatsiyalar va boshqa shunga o'xshash qarz qimmatli qog'ozlarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan past bo'lsa, u holda har safar ularga daromad hisoblanganda harid qilish va nominal qiymatlar orasidagi farqning bir qismi qayta hisoblanadi (to'ldiriladi) va quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Debet 0610 «Qimmatli qog'ozlar» scheti,

Kredit 9590 «Foiz ko'rinishidagi daromadlar» scheti.

Qimmatli qog'ozlarga daromad hisoblanganda (olinadigan daromad miqdorida) buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Obligatsiyalar uchun foiz ko'rinishidagi daromad summasiga:

Debet 4830 «Olinadigan foizlar» scheti,

Kredit 9530 «Foiz ko'rinishidagi daromad» scheti.

2. Aktsiyalar bo'yicha dividend ko'rinishidagi daromad summasiga:

Debet 4840 «Olinadigan dividendlar» scheti,

Kredit 9520 «Dividend ko'rinishidagi daromadlar» scheti.

0600 «Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schetlar» scheti bo'yicha analitik hisob uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar va ular joylashtirilgan ob'ektlar (qimmatli qog'ozlarni sotuvchi korxonalar va boshqa korxonalarni qatnashchilari orasida bo'lgan korxona va h.k.) turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bu holatda analitik hisobni tashkil etish mamlakatimiz hududi va chet elda joylashgan ob'ektlarga qilingan uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlab berishi kerak.

Korxonaning boshqa korxonalar qimmatli qog'ozlariga, davlat va mahalliy zayomlari (qarzlari) ga va h.k. qilingan qisqa muddatli (1 yildan ko'p bo'lmagan muddatga) investitsiyalarining hamda korxona tomonidan boshqa korxonalarga berilgan qarzlarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi ma'lumotni umumlashtirish uchun 5800 "Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schetlar" schetining quyidagi schetlaridan foydalaniladi:

5810 "Qimmatli qog'ozlar";

5820 "Qisqa muddatga berilgan qarzlari";

5890 "Boshqa joriy investitsiyalar".

Bu holda foizli obligatsiyalar va shunga o'xshash qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hamda boshqa korxonalarga berilgan qarzlari qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga olish schetlarida qayd etiladi, agarda ularni belgilangan qoplash muddati bir yildan oshmasa.

Auditor qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oladigan schetlar bo'yicha analitik hisob qisqa muddatli investitsiyalar va bu qo'yilmalar joylashtirilgan ob'ektlar (qimmatli qog'ozlarni sotuvchi korxonalar, jamg'armalar va h.k.) bo'yicha olib borilishiga alohida e'tibor berishi kerak. Bu holda analitik hisobni amalga oshirish mamlakat hududi va undan tashqaridagi ob'ektlarga qilingan qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Qisqa muddatli investitsiyalar xarid qilingandan keyin ikki usuldan birida: bozor yoki xarid qiymatlari va bozor qiymatidan kam narx bo'yicha hisobga olinadi. Tanlangan usul korxona hisob siyosati bilan aniqlanadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar bozor qiymatining o'zgarishidan daromad yoki zarar, ular yuzaga kelgan hisobot davrida tan olinadi va quyidagicha aks ettiriladi:

daromad:

Debet 5800 «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar»,

Kredit 9560 «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar»; zarar:

Debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar»,

Kredit 5800 «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar».

12-son «Moliyaviy investitsiyalar» nomli BHMS ning 22 – bandida qisqa muddatli investitsiyalarni qayta baholashdan daromadlarni hisobga olishning boshqa muqobil usuli taklif etilgan: investitsiyalarni qo'shimcha baholash summasi o'z sarmoyasi hisobiga kiritiladi:

Debet 5800 «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar»;

Kredit 8510 «Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar».

Biroq, bunda quyidagini yodda tutish lozim: bozor qiymati bo'yicha qayta baholangan qimmatli qog'ozlarni sotishda rezerv sarmoya schetlarda aks ettirilgan barcha qo'shimcha baholash summasi joriy davr daromadi sifatida yoxud taqsimlangan foydaning oshirilishi sifatida aks ettirilishi lozim:

Debet 8510 «Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar»;

Kredit 9560 «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar»;

Kredit 8720 «Jamg'arilgan foyda».

Shuningdek, ta'kidlash joizki, mazkur davrda korxonada daromad solig'ini to'lash majburiyati yuzaga keladi.

21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schetlarining rejasi» BHMS ga muvofiq 8510 “Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” schetida qayta baholash natijalari bo'yicha aniqlanadigan qimmatli qog'ozlar qiymatini o'sishi hisobga olinishi lozim. Aktivlarni qayta baholash natijasida tashkil qilinadigan zahira kapitalini yaratish va to'ldirib borish 8510 “Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar” schetining krediti bo'yicha qayta baholash natijasida qiymatning o'sishi aniqlangan aktivlarning schetlari bilan korrespondentsiyalanib aks ettirilishi lozim. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarning balans qiymati ularning sotilish vaqti kelguncha nominal qiymatga teng bo'lishi lozim.

Demak, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarning qiymatini nominal bahosiga keltirish uchun ularning balans qiymati ko'payishi (kamayishi) 9560 “Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromad”, 9690 “Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa sarflar” schetlari bilan korrespondentsiyalanadi.

Qayta sotish uchun xarid qilingan qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan tushum 9220 "Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishlar" schetining debeti uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga olish schetlarining krediti bilan korrespondentsiyalanadi.

12-sonli «Moliyaviy investitsiyalarning hisobi» nomli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan amaliyotda qimmatli qog'ozlar bir necha ko'rinishdagi qiymatga ega bo'lishi mumkin: bozor qiymati (kurs bo'yicha); nominal qiymat; emissiya qiymati; balans qiymati (haqiqiy tannarx); bekor qilish qiymati; garov qiymati; iste'mol qiymati.

Bozor (kurs bo'yicha) qiymati - qimmatli qog'ozning pul ifodasidagi yoki tegishli ekvivalentlardagi (foizda nominalga nisbatan) qiymati. Bu qiymat bo'yicha qimmatli qog'oz ma'lum bir belgilangan vaqt oralig'ida ochiq bozorda sotib oluvchi to'lashga rozi bo'lgan, sotuvchi esa shu narxga sotishga rozi bo'lgan narxni bildiradi, bunda sotib oluvchi ham, sotuvchi ham mazkur bitimning ahamiyatli tomonlari bo'yicha etarli ma'lumotga ega bo'ladilar.

Nominal qiymat - qimmatli qog'oz blankida ko'rsatilgan qiymat va qimmatli qog'ozlarning bozordagi aylanuviga ahamiyatli hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Bu qiymat faqat ma'lumot sifatida kapital ulushi yoki qarzni miqdorini ko'rsatadi.

Emissiya qiymat – bu qiymat bo'yicha qimmatli qog'oz birlamchi bozorda sotiladi. Nominal va emission qiymatlar orasidagi farq qimmatli qog'ozlarni tarqatuvchi diler firmalarining xizmatlari bilan bog'liq. Dilerlar qimmatli qog'ozlarni emitentdan nominal qiymati bo'yicha sotib oladilar va investorlar orasida emission qiymat bo'yicha sotadilar.

Balans qiymat - bu qimmatli qog'ozni xarid qilishda sarf qilingan haqiqiy xarajatlar qiymati. Bu qiymat moliyaviy hisobot hujjatlari asosida aniqlanadi.

Bekor qilish (likvidatsiya) qiymati – bitta qimmatli qog'ozga to'g'ri keladigan real (mavjud) mulkni haqiqiy sotuv narxidagi qismining qiymati.

Garov qiymat - bu qimmatli qog'ozlarning qarz va kreditlar olinganda garov sifatida hisobga olinadigan qiymati. Garov qiymati deb, asosan qimmatli qog'oz garovga berilishi mumkin bo'lgan kreditning maksimal summasiga aytiladi.

Iste'mol qiymat – bu kurs qiymatining ortishi natijasida keltirilgan foyda.

Audit jarayonida qimmatli qog'oz (aktsiya va obligatsiya) larga qilingan investitsiyalarni hisob usullarini ko'rib chiqish lozim. Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni buxgalteriya hisobini bir nechta o'zaro bog'liq bo'lgan yo'nalishlarga bo'lib chiqish mumkin:

- xarid qilish qiymatini shakllantirish;
- jalb qilingan moliyaviy investitsiyalarni baholash uslubini aniqlash;
- hisob qiymatini shakllantirish;
- qayta baholash masalalari;
- balansdan chiqarish uslubi va ular bilan bo'lgan muomalalarning moliyaviy natijalarini shakllantirish.

Qimmatli qog'ozlarni xarid qilish qiymatini shakllantirish katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki xarid qilish qiymatiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga nisbatan ularning hisob qiymati va nihoyat moliyaviy natija ham aniqlanadi. Bunday xarajatlar faqat qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bilan bog'liq muomalalar bo'yicha xarajatlarni o'z ichiga olishi kerak. Bu xarajatlarning asosiy qismi sotuvchiga to'lanadigan qimmatli qog'ozning qiymati hisoblanadi. Bularga mazkur muomalani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, ya'ni qimmatli qog'ozlarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan muomalalarni amalga oshirish bo'yicha xarajatlarni kiritish kerak. Mavjud bo'lgan me'yoriy asos qimmatli qog'ozlarni xarid qilish qiymatiga ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar tarkibini etarli darajada aniq belgilab beradi. Auditor bunday xarajatlarni aniqlab, xaridining haqiqiy qiymatini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Audit jarayonidagi keyingi bosqich qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatini haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslashdan iborat. Qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobining schetlariga kirim qilishda savol tug'iladi: qimmatli qog'ozlarni hisobga qanday bahoda qabul qilish kerak? Bu erda qimmatli qog'ozlarni hisobda ifodalashni xalqaro standartlarini o'z ichiga olgan xalqaro amaliyotni ham, milliy qonunchilikni ham ko'rib chiqish zarur. Investorlarning

bozordagi faoliyati va maqsadlari bo'yicha farq qiladigan turli ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlarni hisobda aks ettirish uslubiyotining birlashuvi investitsion portfelni tahlil qilishga yagona yondoshish va foydalanuvchilarni o'z vaqtida va ob'ektiv ma'lumot bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Auditor qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni buxgalteriya hisobini 21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schetlarining rejasi» buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan ifodalaydi va qimmatli qog'ozlarni qiymatini avvalam bor sotib olish qiymatida va sotish davrigacha ularni narxini nominal narxgacha etkazilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Shuningdek, schetlardagi qimmatli qog'ozlar qiymatini o'zgarish mezonlarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Bulardan tashqari, moliyaviy investitsiyalar 0610, 5810 – «Qimmatli qog'ozlar» nomli schetlarda to'g'ri aks etilganligini tekshiradi, qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar to'g'ri tasniflanishi va ular bo'yicha alohida hisob yuritilayotganligini aniqlaydi. Moliyaviy investitsiyalar buxgalteriya hisobining registrlari ma'lumotlari asosida ularning tarkibi aniqlanadi va to'g'ri baholanganligi tahlil qilinadi, hisob registrlari ma'lumotlari dastlabki hujjatlar ma'lumotlari bilan solishtiriladi, hujjatlar mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Korxonada albatta moliyaviy investitsiyalarni ro'yxatga olish daftari yuritilishi lozim.

Operatsiyalar miqdori ko'p bo'lgan taqdirda, auditor moliyaviy investitsiyalar to'g'ri kirim qilinganligi va ular hisobda aks etilganligini tanlab olib tekshiradi. Bunda moliyaviy investitsiyalar hisobga sotib olingan narxlari bo'yicha qabul qilinishi, sotib olish va ularning nominal qiymati bo'yicha farqlar qimmatli qog'ozlarning amal qilish muddati davomida hisobdan chiqarilishini unutmash kerak.

Auditor moliyaviy investitsiyalar 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schetlar», 5800 «Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schetlar» nomli schetlarda to'g'ri aks etilganligini tekshiradi, uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar to'g'ri tasniflanishi va ular bo'yicha

alohida hisob yuritilayotganligini aniqlaydi. Moliyaviy investitsiyalar buxgalteriya hisobining registrari ma'lumotlari asosida ularning tarkibi aniqlanadi va to'g'ri baholanganligi tahlil qilinadi, hisob registrari ma'lumotlari dastlabki hujjatlar ma'lumotlari bilan solishtiriladi, hujjatlar mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Korxonada albatta moliyaviy investitsiyalarni ro'yxatga olish daftari yuritilishi lozim.

Auditor moliyaviy investitsiyalar sotilishi va hisobdan chiqarilishi bo'yicha operatsiyalar hisobda to'g'ri aks ettirilishiga alohida e'tiborini qaratishi lozim. Har qanday hisobdan chiqarish 9220 -"Boshqa aktivlarning chiqib ketishi schetlar" schet orqali hisobga olinishi lozim.

Ularning sotilishi yoki chiqarilishidan hosil bo'lgan foyda yoki zarar

"Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot"da aks ettirilishi kerak va auditorning vazifasi ular to'g'ri soliqqa tortilganligini tekshirishdan iborat.

Korxonalar bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga qo'yishdan tashqari boshqa korxonalarning ustav kapitaliga ulush sifatida shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarga qarz berish uchun ham ishlatishlari mumkin.

Korxonalar yaqin vaqtlargacha o'zlarining pul mablag'larini asosan kapital investitsiyalarga sarflashlari mumkin edi. Bo'sh turgan pul mablag'laridan foydalanish imkoniyatlarining paydo bo'lishi bilan yangi hisob ob'ektlari kabi yangi audit ob'ektlari ham vujudga kelmoqda.

Qimmatli qog'ozlarda ifodalangan huquqlarni aks ettirish shakli bo'yicha ular hujjatli va hujjatsiz turlariga bo'linadi.

Hujjatli shaklda qimmatli qog'oz egasi tegishli tarzda rasmiylashtirilgan qimmatli qog'oz sertifikatini taqdim qilish asosida aniqlanadi, bunday deponentga o'tkazish hollarida depo schyoti bo'yicha yozuv asosida aniqlanadi. Bunda auditorga qimmatli qog'oz sertifikati yoki depo schyotidan ko'chirma taqdim qilinishi lozim.

Hujjatsiz shaklida qimmatli qog'oz egasi qimmatli qog'ozlar egalari reestrtdagi yozuvlarga asosan yoki qimmatli qog'ozlar deponentlangan hollarda

depo schyoti bo'yicha yozuvlar asosida aniqlanadi. Bunda auditorga reestr yoki depo schyotidan ko'chirma taqdim qilinishi lozim.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda qo'llaniladigan dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini tekshirishda shuni hisobga olish zarurki, qimmatli qog'ozning o'zi - qat'iy shakldagi hujjat bo'lib, uning shakli va majburiy rekvizitlari qimmatli qog'ozlarning ma'lum turlari uchun qonunchilik bilan belgilangan talablarga mos kelishi lozim. Qimmatli qog'ozlarda majburiy rekvizitlarning yo'qligi yoki qimmatli qog'ozning belgilangan shaklga mos kelmasligi uning yaroqsizligidan dalolat beradi.

Shuning uchun auditor qimmatli qog'ozlar blanklarini shaklan tekshirish bilan birga, mohiyatan ham tekshiruvdan o'tkazadi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar qiymat ko'rsatkichlari arifmetik tekshiruvdan ham o'tkazilishi zarur.

12-sonli «Moliyaviy investitsiyalarni hisobi» nomli buxgalteriya hisobining milliy standarti va 39-sonli «Moliyaviy instrumentlar» nomli moliyaviy hisobot xalqaro hisobotida asosiy mezonlardan biri ehtiyotkorlik tamoyili bo'lib, u qimmatli qog'ozlarni mavjud baholardan bo'yicha hisobga olish «eng kami» va «haqiqiy bozor qiymati» zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ushbu standartlardan kelib chiqqan masala qimmatli qog'ozlarni kamida ikkita bahoda hisobda aks ettirish zaruriyatidan iborat: aktsiyalar uchun – bu xarid qilishning haqiqiy qiymati va joriy bozor bahosi. Aktsiyalar uchun haqiqiy harid bahosi nominal bahoga nisbatan muhimroq ko'rsatkich hisoblanadi, chunki aktsiya odatda muddatsiz qimmatli qog'oz bo'ladi va uning nominal qiymati – bu faqat oldindan avanslangan kapital miqdoridir. Ta'kidlash joizki, aktsiyalarning bozor qiymati ularning emissiyasidan keyingi emitentning nizom kapitali bilan juda ham bog'liq emas.⁷

Obligatsiyalar uchun esa bu – nominal qiymat va joriy bozor bahosi. Obligatsiyalarni muomalada bo'lishi ularning nominal qiymati bilan bog'liq. Negaki, ularning qoplanish muddati yaqinlashgani sari (boshqa shart-sharoitlar

⁷ 12-sonli «Moliyaviy investitsiyalarni hisobi» nomli buxgalteriya hisobining milliy standarti. 39-sonli «Moliyaviy instrumentlar» nomli xalqaro moliyaviy hisobot standarti.

o'zgarmagan holda, masalan, emitentning barqarorligi va hokazo) uning bozor qiymati nominalga yaqinlashib boradi. Aktsiya va obligatsiyalar uchun ikki baho bo'lishining muhimligi tahlil qilish va boshqarish masalalari bilan bog'liq – ular orasidagi farq ma'lum vaqt mobaynida amalga oshirilmagan daromad miqdorining mohiyatidan iborat.

Audit jarayonida moliyaviy investitsiyalarni baholash va qayta baholash O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun va 12-sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli BHMS asosida amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish lozim.

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha qimmatli qog'ozlar sotib olinganida qilingan moliyaviy investitsiyalar investor uchun qilingan haqiqiy xarajatlar summasida buxgalteriya hisobiga qabul qilinadi.

Qimmatli qog'ozlarni hisobga oladigan qiymatini shakllantiruvchi barcha haqiqiy xarajatlar 0610, 5810-«Qimmatli qog'ozlar» schetlar debetida hisobga olinadi. Auditor qimmatli qog'ozlar sotib olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar tarkibini, ushbu xarajatlarni moliyaviy investitsiyalar qiymatiga qo'shishning qonuniyligini, bu xarajatlarning tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligini tekshiradi.

Moliyaviy investitsiyalarning hisobga qabul qilingan bahosi, qoidaga ko'ra o'zgartirilmaydi. Qarz qimmatli qog'ozlar bundan mustasno.

Qimmatli qog'ozlar shartnomaga muvofiq tekinga olinganida olingan vaqtidagi bozor bahosi bo'yicha baholanadi.

Agar moliyaviy investitsiyalar chet el valyutasida amalga oshirilsa, bunday muomalalarning valyuta muomalalarini tartibga soladigan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini tekshirish zarur.

Qiymati chet el valyutasida ifodalangan moliyaviy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan belgilangan, operatsiya sodir bo'lgan kunda amal qilayotgan valyuta kursi bo'yicha so'mga hisoblab baholanadi.

Qimmatli qog'ozlar va berilgan qarzar investor uchun moliyaviy investitsiyalar ob'ekti bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi

«Qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjasi to'g'risida»gi qonunga muvofiq qimmatli qog'ozlar mulkiy huquqlarni yoki ularni chiqargan shaxslar va ularning egalari o'rtasidagi qarz munosabatlarini tasdiqlaydigan, dividendlar yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lanishini va ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni o'tkazib berish imkoniyatlarini nazarada tutuvchi pul hujjatlaridir.

Ob'ektlarning qimmatli qog'ozlar qatoriga to'g'ri olib borilganligini tekshirish chog'ida korxonaning qimmatli qog'ozlar uchun huquqi borligi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha huquqni berish qoidalariga rioya qilinishini aniqlash zarur.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda qo'llanilgan dastlabki hujjatlarni tekshirish o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki ular qimmatli qog'ozlarga doir mulkiy huquqning bir sub'ektdan ikkinchisiga o'tishida maxsus tartibni belgilaydi.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga qabul qilish uchun asos bo'luvchi hujjatlarda muayyan qimmatli qog'ozni sotib olish maqsadi va undan foydalanish muddati ko'rsatilishi shart.

Auditor qimmatli qog'ozlarni to'g'ri baholanganligini tekshiruv chog'ida 12-sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli BHMS ning 919 bandlaridagi qoidalariga asoslanadi. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha haqiqiy xarajatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: shartnomaga muvofiq sotuvchiga to'lanadigan summalar; qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog'liq axborot va maslahat xizmatlar uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotlar yoki shaxslarga to'lanadigan summalar; qimmatli qog'ozlarni sotib olishda ishtirok qilgan vositachi tashkilotlarga to'lanadigan to'lovlar. Qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilgunga qadar ishlatilgan qarz mablag'lar bo'yicha foizlar to'lash uchun qilingan sarflar; qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa sarflar.

Auditor qaytarish muddati bir yildan oshiq qimmatli qog'ozlar ham qayta baholanayotganligini tekshirish lozim. Chunki kurs tafovutini qayta baholash va

hisobda aks ettirish faqat qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar tarkibida hisobga olinadigan qimmatli qog'ozlar, hamda korxona tomonidan belgilangan tartibda depozitga joylashtirilgan pul mablag'lari bo'yicha amalga oshiriladi. Boshqa korxonalarning ustav kapitaliga qo'shilgan ulushlar ta'sis shartnomasida belgilangan (kelishilgan) qiymat bo'yicha baholanadi. Korxona mulkini boshqa korxona ustav kapitaliga ulush sifatida berishda moliyaviy investitsiyalar shartnoma qiymati va berilgan mulklar qiymati o'rtasidagi farqlarni hisobda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish zarur.

Qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromad bitta yoki bir nechta bozor ko'rsatkichlari (indekslar) ga bog'liq. Masalan, fyuchers muomalalaridan olinadigan daromad oldi-sotdini amalga oshirishda tovarning kelgusidagi bahosi qanchalik to'g'ri aniqlanganligi va bu tovarga talab qanday ekanligiga bog'liq.

2.3. INVESTITSION FAOLIYATI AUDITINIG NATIJALARINI UMUMLASHTIRISH VA RASMIYLASHTIRISH

Auditorlik muolajalaridan biri - bu inventarizatsiya O'zbekiston Respublikasi BHMS ga muvofiq to'g'ri o'tkazilganligini tekshirishdir.

Agar qimmatli qog'ozlar korxona kassasida saqlansa, ularning inventarizatsiyasi har oyda pul mablag'larining tekshiruvi bilan birgalikda o'tkazilishi lozim. Har bir qimmatli qog'ozning rekvizitlari korxona buxgalteriyasida saqlanadigan ro'yxatnomalar (reestrlar, daftarlar) ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Maxsuslashtirilgan korxonalar (depozitariy)ga saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlarning inventarizatsiyasi tegishli hisob schetlarida hisobga olingan summalar qoldig'ini mazkur depozitariydan olingan qo'chirma ma'lumotlari bilan solishtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Zarur bo'lsa, auditor moliyaviy investitsiyalar bo'yicha yoppasiga inventarizatsiya o'tkazishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish metodikasi hali

Respublikamizda to'liq ishlab chiqilmagan.

Moliyaviy hisobotlar investitsion faoliyatning miqyoslari, yo'nalishlari va tavsifini, uning korxona moliyaviy faoliyati, istiqboliga ta'sirini ochib berish uchun xizmat qiladi. Ulardan zarur axborotlarni olish tashqi foydalanuvchilarda va taxlilchilarda korxonaning mulkiy va moliyaviy faoliyati haqida to'liq va aniq ma'lumot shakllanishiga yordamlashadi. Bunday axborotlarga quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi: sotib olingan qimmatli qog'ozlar umumiy qiymati; qimmatli qog'ozlardan olingan daromad (dividendlar va foizlar); qimmatli qog'ozlarni ayrim toifalarga taqsimlash; kotirovkasi muttasil e'lon qilinmaydigan qimmatli qog'ozlarning taxmin qilinayotgan bozor qiymati (u holda baholash metodlari va usullari korxona hisob siyosatidan kelib chiqqan holda bayon qilingan boshqaruv xodimlarining baholashi bo'lishi mumkin); aktsiya qiymatining o'zgarishlari; qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida vujudga kelgan, ko'zda tutilmagan daromadlar va zararlar (agar ular sezilarli darajada bo'lsa); korxona investitsiyasida salmoqli o'rin egallovchi qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tavsiflashda foydalanilgan usullar mohiyati maxsus ochib berilishi lozim.

Bu ma'lumotlar buxgalteriya hisobotining qiymat ko'rsatkichlarini baholash uchun zarur. Qimmatli qog'ozlar auditi qimmatli qog'ozlarga taalluqli buxgalteriya hisoboti ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirishdan boshlanadi.

Bunday tekshiruv korxonaning nakd pullarini tekshirishdagi kabi inventarizatsiya o'tkazish yo'li amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilish quyidagi vazifalarni hal etadi: ularning haqiqatdagi mavjudligini aniqlash; haqiqatda mavjud qoldiqlarini buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali ularning saqlanishi ustidan nazorat o'rnatish; qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning to'liqligi va o'z vaqtidaligini tekshirish; ularning saqlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligini tekshirish (korxonada saqlanganida); qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq daromadlar va yo'qotishlarni hisobda aks ettirishning haqqoniyligini aniqlash.

Auditor inventarizatsiyani boshlashdan oldin qimmatli qog'ozlar bo'yicha ichki auditning ahvoli bilan tanishishi zarur. Chunonchi, korxonaning pul mablag'lari bo'yicha maxsus komissiyasi har oyda kamida bir marta pul mablag'lari kabi qimmatli qog'ozlarni ham inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat) dan o'tkazishi lozim. Bundan tashqari, yillik buxgalteriya hisobotini tuzishdan oldin, moddiy javobgar shaxslar almashish hollarida, o'g'rilik, talon-taroj, o'zlashtirish yoki suiiste'mol qilish hollarida, yong'in yoki tabiiy ofatdan so'ng inventarizatsiya o'tkazilishi shart.

Korxona kassasida saqlanayotgan qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilish ularni varaqma-varaq sanash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda har bir qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati, haqiqiyliigi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi aniqlanadi. Tekshiruv alohida har bir emitent bo'yicha dalolatnomada seriyasi, raqami va umumiy summasi ko'rsatilgan holda o'tkaziladi. Har bir qimmatli qog'ozning rekvizitlari buxgalteriyada yuritiladigan ro'yxatlar, reestrlar yoki daftarlarning ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Qimmatli qog'ozlar maxsus tashkilotlarda saqlanganida (banklarda, depozitariyalarda, maxsus joylarda) inventarizatsiya korxonaning tegishli buxgalteriya hisobi schyotlaridagi qoldiqlar ko'chirmasi ma'lumotlari bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Masalan, depozitariyda saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar inventarizatsiyasi 0610-«Qimmatli qog'ozlar» va 5810-«Qimmatli qog'ozlar» schyotlaridagi qoldiq summaları depozitariylar ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Depozitariylar ma'lumotlari inventarizatsiya o'tkazilayotgan paytda depozitariyga yuborilgan so'rov natijasida olinishi mumkin.

Korxonaga tegishli qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilishda ular sotib olish qiymatining haqqoniyligini baholashga maxsus e'tibor berilishi lozim. Buning uchun aktsiyadorlik jamiyatlarining chop etiladigan buxgalteriya hisobotlarini olish, shuningdek, boshqa qiziqtirgan hisob va hisobot ma'lumotlari bilan tanishish huquqiga ega ekanligiga e'tibor berish zarur.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining ishonchliligini tasdiqlash uchun auditor moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning to'g'riligini ham tekshiradi. Tekshiruv chog'ida quyidagilar aniqlanadi:

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 11-moddasi talablariga rioya qilinayotganligi;

-korxonaning hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyrug'ida moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning muddatlari belgilanganligi va bu muddatlarga rioya qilinayotganligini;

-inventarizatsiya hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi (korxonada inventarizatsiya ro'yxatlarining unifikatsiyalangan shakllaridan foydalanish, qimmatli qog'ozlar korxona kassasida saqlanilganida ularning haqiqatda mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga kiritishning aniqligi va to'g'riligi ta'minlanganligi va hokazo).

Qimmatli qog'ozlar auditining keyingi bosqichida haqiqatda mavjud qimmatli qog'ozlar buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Bunda auditor qimmatli qog'ozlarning ortiqcha (kamomad) chiqqanlarini ham, o'zining ish hujjatlarida aks ettirishi va bular haqida korxona rahbariyatiga bildirishi lozim. O'z navbatida korxona rahbariyati bunday ortiqcha (kamomad)larning vujudga kelish sabablari va bunga javobgar shaxslarni aniqlash, hamda kamomadlarni bartaraf etish choralarini ko'rishi lozim; etishmagan qimmatli qog'ozlar qiymati aybdor shaxslar tomonidan qoplanishi yoki ortiqcha chiqqan qimmatli qog'ozlarni kirim qilish lozim. Bunda inventarizatsiya dalolatnomalari, taqqoslash qaydnomalari va moddiy javobgar shaxslarning tushuntirish xatlariga asosan quyidagi Buxgalteriya provodkalari tuziladi:

a) Oshiqcha chiqqanda:

Debet 0600, 5800 - schyotlar Kredit 9590 schyot oshiqcha chiqqan qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatiga (turlari bo'yicha).

b) Kamomad: Debet 5910 Kredit 0600, 5800 -schyotlar kam chiqqan qimmatli qog'ozlar nominal qiymatiga.

c) Kamomadlarni moddiy javobgar shaxsga o'tkazilganda:

Debet 4730 Kredit 5910 nominal qiymatiga, Kredit 9590 etishmagan qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatidan birja qiymatining kamomad aniqlangan paytdagi oshgan summasiga.

d) Debet 5010, 6710 Kredit 4730 etishmagan qimmatli qog'ozlar birja qiymatining aybdor shaxs tomonidan kassaga naqd pul bilan to'lanishi yoki uning oylik maoshidan ushlab qolinishi.

e) Kamomadlarning korxona moliyaviy natijalariga olib borilishi:

Debet 9430 Kredit 5910 etishmagan qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati.

Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning xususiyati nafaqat qimmatli qog'ozlarning haqiqatda mavjudligi, balki qimmatli qog'ozlarni baholash ya'ni, ularning qiymatini shakllantiruvchi haqiqiy xarajatlar to'g'riligini aniqlashdan ham iboratdir. Auditor qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to'g'riligi, o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirishda inventarizatsiya ma'lumotlaridan ham foydalanadi.

III. BOB. KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATI AUDITINING METODOLOGIK JIHATLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHI

3.1. KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATI AUDITINING XALQARO STANDARITLARDAN FOYDALANISH

Malumki auditorning auditorlik tekshiruvini olib borish jarayonida amalga oshirgan ishlari ketma ketligini, tekshiruv natijalarini, tekshirilgan obektlar va tekshiruv natijalarini o'zida mujassamlashtirgan xujjat bu auditorlik hisoboti hisoblanadi. Moliyaviy hisobotni tekshirganligi xususida auditorlik hisobotini berish tartibi, auditorlik hisobotiga qo'yiladigan talablar va hisobot tarkibiy tuzulishi tartib qoidalari 700 son AUDITNING XALQARO STANDARTI "MOLIYAVIY HISOBOTLAR TO'G'RISIDA FIKR HOSIL QILISH VA HISOBOT (XULOSA) BERISH" da belgilab berilgan.

Ushbu Auditning Xalqaro Standarti (AXS)da auditorning moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikrni hosil qilish uchun javobgarligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek unda moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazish natijasida chiqariladigan auditorlik hisoboti (xulosasi)ning shakli va mazmuniga tavsif beriladi. AXS 705 va AXS 706 da auditor tomonidan bildirilgan modifikatsiyalangan fikr yoki auditor tomonidan auditorlik hisoboti (xulosasi)ga kiritilgan tushuntirish paragrafi yoki boshqa masala paragrafining auditorlik hisoboti (xulosasi)ga ta'siri ko'rib chiqiladi. Ushbu AXS umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami nuqtai nazaridan yozilgan. AXS 800 da moliyaviy hisobotlarni maxsus maqsadli asosga muvofiq tayyorlash bilan bog'liq maxsus masalalar ko'rib chiqiladi. AXS 805 da ayrim moliyaviy hisobot yoki moliyaviy hisobotning maxsus elementi, schyoti yoki moddasi audit uchun o'rinli bo'lgan maxsus masalalar ko'rib chiqiladi. Ushbu AXS auditorlik hisoboti (xulosasi)da izchillikka rioya qilishni amr etadi. AXSga muvofiq audit o'tkazishda auditorlik hisoboti (xulosasi)dagi izchillik jahon bozorida unga nisbatan ishonchni ta'minlaydi, dunyo miqyosida e'tirof etilgan standartlarga muvofiq o'tkazilgan auditorlik tekshiruvini osongina aniqlash uchun imkoniyat yaratadi. Shuningdek bu g'ayrioddiy vaziyatlar yuzaga kelganda foydalanuvchi ularni tushunishi va aniqlashini osonlashtirishga ham yordam beradi.

Moliyaviy hisobotlar – tadbirkorlik sub'ekti iqtisodiy resurslari yoki majburiyatlarining ma'lum bir sanaga bo'lgan holati yoki ma'lum bir davr mobaynidagi o'zgarishlari to'g'risida moliyaviy hisobotni taqdim qilish asosiga muvofiq axborot berishga qaratilgan tarixiy moliyaviy ma'lumotlar va ular bilan bog'liq izohlarning strukturalashgan ifodasidir. Izohlar odatda ahamiyatli hisob siyosatining qisqa mazmuni va boshqa tushuntirish ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. "Moliyaviy hisobot" atamasi moliyaviy hisobotni taqdim qilish asosi talablari bilan belgilangan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plamini nazarda tutadi, ammo alohida olingan moliyaviy hisobotni ham ifodalashi mumkin.

Auditor tomonidan taqdim qilinadigan auditor hisoboti AXS lari tomonidan tartibga solingan. Ushbu AXSlardan biri 700 son AXS bo'lib hisoblanadi. Ushbu

Auditning Xalqaro Standarti (AXS) 700 “Moliyaviy hisobotlar to‘g‘risida fikr hosil qilish va hisobot (xulosa) berish” deb nomlanadi. 700 son AXS da auditor tamonidan auditorlik hisobotini tuzishdan ikki maqsadni ko‘rsatib o‘tgan. Bular quyidagilar:

- Auditorlik dalillari olinganidan keyin chiqarilgan xulosalarni baholash asosida moliyaviy hisobotlar bo‘yicha fikr hosil qilish;
- Mazkur fikrni yozma xulosada aniq ifodalash va bunda mazkur xulosada ushbu fikrni bildirish uchun asosni bayon etish.

Auditor auditorlik dalillari olinganidan keyin chiqarilgan xulosalarni baholash asosida moliyaviy hisobotlar bo‘yicha quyidagicha fikrlarni hosil qilishi mumkin:

- Modifikatsiya qilinganfikr
- Modifikatsiya qilinmaganfikr

Modifikatsiya qilingan fikr — qo‘shimcha izohlar bilan fikr, salbiy fikr yoki fikr bildirishdan bosh tortish.

Modifikatsiya qilinmagan fikr – Auditor moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlari bo‘yicha moliyaviy hisobotni taqdim qilish uchun qo‘llaniladigan asosga muvofiq tayyorlangan degan xulosaga kelganida bildiriladigan fikr.

Auditor moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asosiga muvofiq tayyorlangani xususida fikr hosil qilishi lozim. Mazkur fikr hosil qilish uchun auditor moliyaviy hisobotlarda firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko‘rsatishlar bor-yo‘qligi xususida oqilona ishonchga asoslangan xulosa chiqarishi lozim. Bunday xulosa quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- AXS 330 ga muvofiq, auditorning yetarlicha tegishli auditorlik dalillari olingan-olinmagani to‘g‘risidagi xulosasini;
- AXS 450 ga muvofiq, auditorning tuzatilmagan buzib ko‘rsatishlar alohida-alohida yoki jamuljam holda muhim yoki muhim emasligi to‘g‘risidagi xulosasini;
- AXS 700 12–15-bandlarga muvofiq talab etiladigan baholarni.

12-band: Auditor moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarda moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asosi talablariga muvofiq

tayyorlanganini baholashi lozim. Bunday baholash tadbirkorlik sub'ekti hisob yuritish amaliyotining sifat jihatlarini, shu jumladan tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati mulohazalarida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan noxolislik alomatlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga olishi lozim.

13-band: Auditor moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosi talablarini inobatga olgan holda quyidagilarni baholashi lozim:

- Moliyaviy hisobotlarda hisob siyosatining tanlangan va qo'llanilayotgan ahamiyatli prinsiplari lozim darajada ochib berilganmi;

- Tanlangan va qo'llanilayotgan hisob siyosatlari moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asos talablariga mos keladimi va ular o'rinli hisoblanadimi;

- Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan hisoblab chiqilgan baholar asoslimi;

- Moliyaviy hisobotlarda ifodalangan ma'lumotlar o'rinli, ishonchli, qiyosiy va tushunarlimi;

- Moliyaviy hisobotlar ularning ehtimol tutilayotgan foydalanuvchilariga muhim operatsiyalar va hodisalar moliyaviy hisobotlarda ifodalangan ma'lumotlarga ko'rsatuvchi ta'sirni tushunish imkonini beradigan ochib beriladigan adekvat ma'lumotlarni ta'minlaydimi;

- Moliyaviy hisobotlarda qo'llanilgan terminologiya, shu jumladan har bir moliyaviy hisobotning nomi maqbulmi.

700 son AXSga muvofiq auditorlikhisobot (xulosa) hech bo'lmasa quyidagi elementlardan har birini o'z ichiga olgan holda havola etilishi lozim:

- Nom;
- Kelishuv shartlariga muvofiq, adresat;
- Audit qilingan moliyaviy hisobotlarni ta'riflovchi kirish paragrafi;
- Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun javobgarligi tavsifi;

- Auditorning moliyaviy hisobotlar bo'yicha fikr bildirish va audit ko'lami uchun javobgarligi tavsifi, shu jumladan:

- Auditning Xalqaro Standartlari hamda qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga ishora;

- Mazkur standartlarga muvofiq audit tavsifi;

- Auditor fikri ifodalangan, moliyaviy hisobotlar bo'yicha bildirilgan fikr aks ettirilgan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun qo'llanilgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosi ko'rsatilgan (shu jumladan, agar Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Kengash tomonidan chiqarilgan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari yoki Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari qo'llanilgan bo'lmasa, moliyaviy hisobotlarni taqdim etish asosi mansub bo'lgan yurisdiksiya ko'rsatilgan) band;

- Auditorning imzosi;

- Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi; va

- Auditorning manzili.

Nom

Auditorlik hisoboti (xulosasi) mazkur hisobot (xulosa) mustaqil auditorning hisoboti (xulosasi) hisoblanishini aniq ko'rsatadigan nomga ega bo'lishi lozim. (A15 bandiga qarang)

Adresat

Auditorlik hisoboti (xulosasi) kelishuv shartlariga muvofiq tegishli adresat ko'rsatilgan holda tuzilishi lozim.

Kirish paragrafi

Auditorlik hisoboti (xulosasi)ning kirish paragrafida:

- Audit qaysi tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotlari bo'yicha o'tkazilganligini qayd etish;

- Mazkur moliyaviy hisobotlar bo'yicha audit o'tkazilganini qayd etish;

- Moliyaviy hisobotlar tarkibiga kiruvchi har bir hisobot nomini qayd etish;

- Hisob siyosati asosiy qoidalarining qisqacha tavsifiga va boshqa sharhlovchi izohlarga havola etish;

- Moliyaviy hisobotlarni hosil qiluvchi har bir moliyaviy hisobotda aks ettirilgan sana yoki davr aniq ko'rsatilishi lozim.

Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi

Auditorlik hisoboti (xulosasi)ning mazkur qismida tadbirkorlik sub'ektida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgar bo'lgan shaxslarning majburiyatlari tavsiflanadi. Auditorlik hisoboti (xulosasi)da faqat "tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati"ga havola etish kerak emas, muayyan yurisdiksiyaning me'yoriy-huquqiy bazasi kontekstiga mos keladigan atama ishlatilishi lozim. Ayrim yurisdiksiyalarda tegishli havola boshqaruv yuklatilgan shaxslarga qaratilishi mumkin. Auditorlik hisoboti (xulosasi) "Tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi" degan sarlavhali qismni o'z ichiga olishi lozim. Auditorlik hisoboti (xulosasi)da tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi tavsiflanishi lozim. Tavsif tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotlar taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiga muvofiq tayyorlash va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lmagan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblagan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo'lishi to'g'risida tushuntirishni o'z ichiga olishi lozim. Agar moliyaviy hisobotlar haqqoniy taqdim etish asosiga muvofiq tayyorlangan bo'lsa, auditorlik hisoboti (xulosasi)da tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatining moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun javobgarligi tavsifi, vaziyatga qarab, "mazkur moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va haqqoniy taqdim etish" yoki "to'g'ri va haqqoniy tasavvur beradigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash"ga havola etishi lozim.

Auditorning javobgarligi

Auditorlik hisoboti (xulosasi) "Auditorning javobgarligi" degan sarlavhali qismni o'z ichiga olishi lozim. Auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditorning javobgarligi u moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'zi o'tkazgan audit asosida o'z fikrini bildirishidan iborat ekanligi ko'rsatib o'tilishi lozim. Auditorlik hisoboti (xulosasi)da audit Auditorning Xalqaro Standartlariga muvofiq o'tkazilgani qayd

etilishi lozim. Auditorlik hisoboti (xulosasi)da mazkur standartlar auditorga axloqiy talablarni bajarish, shuningdek auditni moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlar mavjud emasligiga oqilona ishonch hosil qilish imkonini beradigan tarzda rejalashtirish va o'tkazish majburiyatini yuklashiga ham qayd etilishi lozim.

Auditorlik hisoboti (xulosasi)da o'tkazilgan audit tavsifi quyidagilar ko'rsatilgan holda keltirilishi lozim:

- Audit moliyaviy hisobotlardagi summalar va ochib berilgan ma'lumotlar bo'yicha auditorlik dalillarini olish uchun tartib-taomillarni bajarishni o'z ichiga oladi;

- Tanlangan tartib-taomillar auditorning mulohazasiga, shu jumladan moliyaviy hisobotlarda firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko'rsatishlarga berilgan bahoga bog'liq bo'ladi. Bunday risklarni tadbirkorlik sub'ekti ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida fikr bildirish maqsadida emas, balki vaziyatga mos keladigan auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish maqsadida baholashda auditor tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotlarini tayyorlash bilan bog'liq ichki nazorat tizimini o'rganishi lozim. Agar moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazish munosabati bilan auditor ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida fikr bildirish uchun ham javobgar bo'lsa, auditor ichki nazorat tizimini u ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risida fikr bildirish maqsadida o'rganmagani to'g'risidagi iborani chiqarib tashlashi kerak;

- Audit qo'llanilayotgan hisob siyosatining tegishli xususiyatini va tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan amalga oshirilgan hisoblab chiqilgan baholarning asosliligini, shuningdek moliyaviy hisobotlarning umumiy taqdim etilishini baholashni ham o'z ichiga oladi.

Agar moliyaviy hisobotlar haqqoniy taqdim etish asosiga muvofiq tayyorlangan bo'lsa, auditorlik hisoboti (xulosasi)da o'tkazilgan audit tavsifi, vaziyatga qarab, "tadbirkorlik sub'ekti moliyaviy hisobotlarni tayyorlagani va haqqoniy taqdim etgani" yoki "tadbirkorlik sub'ekti to'g'ri va haqqoniy tasavvur beradigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlagani" qayd etilishi lozim. Auditorlik

hisoboti (xulosasi)da auditor o‘zi olgan auditorlik dalillari auditor fikrini bildirish uchun yetarlicha tegishli xususiyatga ega deb hisoblashi ko‘rsatib o‘tilishi lozim.

Auditorlik fikri

Auditorlik hisoboti (xulosasi) “Fikr” degan sarlavhali qismni o‘z ichiga olishi lozim. Haqqoniy taqdim etish asosiga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlar bo‘yicha modifikatsiyalanmagan fikr bildirishda auditorning fikrida (agar qonunchilik yoki me‘yoriy hujjatlarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa) muodil (ekvivalent) deb baholanadigan quyidagi iboralardan biri qo‘llanilishi lozim:

- Moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarida, ... [moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asos]ga muvofiq haqqoniy taqdim etadi;

- Moliyaviy hisobotlar ... [moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asos]ga muvofiq to‘g‘ri va haqqoniy tasavvur beradi.

Muvofiqlik asosi talablariga binoan tayyorlangan moliyaviy hisobotlar bo‘yicha modifikatsiyalanmagan fikr bildirishda auditorning fikrida moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlarida [moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asos]ga muvofiq tayyorlangani ko‘rsatilishi lozim. Agar auditor o‘z fikrida havola etayotgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo‘llaniladigan asosi Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo‘yicha Kengash tomonidan chiqarilgan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini yoki Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo‘yicha Kengash tomonidan chiqarilgan Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini o‘zida ifodalama, auditor fikrida moliyaviy hisobotlar taqdim etish asosi mansub bo‘lgan yurisdiksiya ko‘rsatilishi lozim.

Auditorning imzosi

Auditorlik hisoboti (xulosasi) imzolangan bo‘lishi lozim.

Auditorlik hisoboti (xulosasi) sanasi

Auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor moliyaviy hisobot bo‘yicha chiqarilgan auditor fikri uchun asos bo‘lgan yetarlicha tegishli auditorlik dalillari, shu jumladan quyidagilar xususida dalillar olingan sana ko‘rsatilishi lozim:

- Moliyaviy hisobotlarni tashkil etuvchi barcha hisobotlar, shu jumladan ilova qilinadigan izohlar tayyorlangan; va

- Tegishli vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar mazkur moliyaviy hisobotlar uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olganini tasdiqlagan.

Auditorning manzili

Auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor yurisdiksiyada u o'z amaliyoti bilan shug'ullanadigan joy hisoblanadigan manzilni ko'rsatishi lozim.

Auditor auditni muayyan yurisdiksiyaning ("milliy audit standartlari" deb ataladigan) audit standartlariga muvofiq o'tkazish majburiyatini olishi, bunda ularga rioya etish jarayonida u audit o'tkazishda qo'shimcha ravishda AXS talablarini ham bajargan bo'lishi mumkin. Bunday hollarda auditorlik hisoboti (xulosasi)da milliy audit standartlariga qo'shimcha ravishda Auditning Xalqaro standartlariga ham qayd etilishi mumkin, biroq auditor bunday ishoradan faqat quyidagi hollarda foydalanish huquqiga ega:

1. Agar milliy audit standartlari talablari va AXS talablari o'rtasida auditor boshqacha fikr hosil qilishiga yoki muayyan vaziyatlarda AXS ga muvofiq talab etiladigan tushuntirish paragrafni kiritmasligiga olib kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar mavjud bo'lmasa;

2. Agar auditor milliy audit standartlarida amr etilgan tartib yoki ta'rifni qo'llayotgan bo'lsa, auditorlik hisoboti (xulosasi) hech bo'lmasa AXSlarda nazarda tutilgan elementlardan har birini o'z ichiga olgan bo'lsa;

3. Agar auditorlik hisoboti (xulosasi)da ham milliy audit standartlari, ham Auditning Xalqaro standartlariga ishora qilingan bo'lsa, auditorlik hisoboti (xulosasi) milliy audit standartlari mansub bo'lgan yurisdiksiyani identifikatsiya qilishi lozim.

Agar moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosiga muvofiq talab etilmaydigan qo'shimcha ma'lumotlar audit qilingan moliyaviy hisobotlar bilan birga taqdim etilgan bo'lsa, auditor bunday qo'shimcha ma'lumotlar audit qilingan moliyaviy hisobotlardan aniq ajratilgani yoki ajratilmaganini baholashi lozim. Agar bunday qo'shimcha ma'lumotlar audit

qilingan moliyaviy hisobotlardan aniq ajratilmagan bo'lsa, auditor tadbirkorlik sub'ekti rahbariyatidan auditi o'tkazilmagan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etish usulini o'zgartirishni so'rashi lozim. Agar tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati bu talabni bajarishdan bosh tortgan bo'lsa, auditor auditorlik hisoboti (xulosasi)da qo'shimcha ma'lumotlar auditi o'tkazilmaganini tushuntirishi lozim.

Auditor fikri moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun qo'llaniladigan asosga muvofiq talab etilmaydigan, biroq moliyaviy hisobotlarning ajralmas qismi hisoblanadigan qo'shimcha ma'lumotlarni qamrab olishi lozim, chunki o'z xususiyati va taqdim etish usuliga ko'ra ular audit qilingan moliyaviy hisobotlardan aniq ajratilishi mumkin emas.

3.2. KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLIYATI AUDITINING USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Subyektlar dividendlar yoki foizlar ko'rinishida qo'shimcha daromad olish maqsadida, o'zlarini erkin mablag'larini moliyaviy qo'yilmalar sifatida boshqa subyektlarga berishlari mumkin, boshqacha qilib aytganda – moliyaviy investitsiya hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi jarayonida subyekt tomonidan uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarni iqtisodiy samaradorligiga katta e'tibor qaratish lozim. Hozirgi rivojlanayotgan bozor sharoitida ushbu masala nazariy jihatdan ishlab chiqilmagan, biroq, amaliyotda uning ba'zi bir jihatlari sekin-asta o'z ifodasini topmoqda, chunonchi, boshqa subyektlar ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish, subyektlardan qimmatli qog'ozlarni sotib olish, ularga qarz berish va investor-subyektlar bergan qarzlari bo'yicha foizlar va kiritgan investitsiyalari bo'yicha dividendlar ko'rinishida daromad olishlari haqiqiy ifodasini topdi. Investitsiyalar samaradorligi masalasini ko'rib chiqishni, boshqa subyektlar ustav kapitaliga aniq investitsiyalar kiritish, subyektlardan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va ularga qarz berishni amalga oshirishga doir subyekt qaroriga ta'sir qiluvchi mezonlarni o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha,

bunday qaror qabul qilinishiga ta'sir etuvchi asosiy holat, birinchidan, ustav kapitaliga kiritiladigan investitsiya subyekt zarar ko'rmassligiga va inqirozga uchramassligiga; ikkinchidan, boshqa subyektlar faoliyatiga yoki qimmatli qog'ozlar va qarz shaklida mablag' qo'ya turib, subyekt o'sha mablag'ni o'z ehtiyojlariga yo'naltirganda olinadigan iqtisodiy samaradorlikdan katta bo'lgan summani dividend va foizlar shaklida olishiga ishonch hosil qilishi lozim.

Bu holat, zarar keltiradigan ishlab chiqarishga mablag' qo'ymaslik va qo'yilgan uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni yo'qotmaslik yoki ushbu qo'yilmalardan tegishli iqtisodiy samara olish uchun investitsiya kiritilayotgan subyektning moliyaviy-xojalik faoliyati va moliyaviy ahvoli yaxshi o'rganilishi kerakligini keltirib chiqaradi. Moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalarni auditida uchraydigan asosiy atamalarni «qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga asoslanib aniqlab olamiz.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi auditning vazifalarini belgilandi:

1. Subyekt aktivlarini moliyaviy investitsiyalar tarkibiga kiritilganligi to'g'riligini tekshirish.
2. Hisobda moliyaviy investitsiyalarni tegishli belgilari bo'yicha ularni turkumlanishini chegaralash to'g'riligini tekshirish.
3. Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda ularni qiymati to'g'ri shakllanganligini tekshirish.
4. Moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalar hisobini to'g'riligini tekshirish.
5. Moliyaviy investitsiyalar sintetik va analitik hisobi holatini baholash.
6. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi va ularni natijalarini hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish.
7. Moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalar bo'yicha soliq qonunchiligiga rioya etilayotganligini tekshirish.

Auditorning oldida turgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, auditning obyektlarini belgilab olamiz »:

4-jadval

Moliyaviy investitsiyalar auditining obyektlari

Ko`rsatkichlar	Ko`rsatkichlar keltirilgan moliyaviy hisobot shakllari			
	Schyotlar	1-shakl	2-shakl	4-shakl
Nomi		Satr	Satr	Satr
1	2	3	4	5
Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar	0600	030	110, 170	100
Qimmatli qog`ozlar	0610	040		
Shuba subyektlarga investitsiyalar	0620	050		
Qaram subyektlarga investitsiyalar	0630	060		
Chet el kapitali mavjud subyektlarga investitsiyalar	0640	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar	0690	080		
Qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar:	5800	370	110, 170	100
Qimmatli qog`ozlar	5810	370		
Qisqa muddatga berilgan qarzlar	5830	370		
Boshqa joriy investitsiyalar	5890	370		

Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha operatsiyalarning tekshiruvi bizning fikrimizcha, quyidagi yo`nalishlar bo'yicha olib borilishi kerak: mavjudligi va to'liqligi, baholash, huquqlar va majburiyatlar, taqdim etish va yoritish.

5-jadval

Moliyaviy investitsiyalarning audit yo`nalishlari

№	Yo`nalishlar	Auditning mazmuni	Ta'minlash darajasi
1.	Mavjudligi va to'liqligi	Ushbu yo`nalish bo'yi cha auditorlik tekshiruvi og`zaki so`rovlardan	Barcha moliyaviy investitsiyalar korxona uchun ahamiyatli bo`lib, balans tuzish sanasiga mavjud va kelajaqda daromad keltiradi;

		boshlanishi mumkin (hisobot davrida qanday o'zgarishlar sodir etilgan, sotib olingan qimmatli qog'ozlar to'liq hisobga olingan, hisobotda aks ettirilishi, analitik va sintetik schyotlar qoldig'i Bosh daftarga mos, qayerda saqlanadi va boshqalar). Agar, qimmatli qog'ozlar subyekt da saqlansa, ularni ko'rib chiqish va sanab chiqish, ya'ni inventarizatsiyani o'tkazish lozim	moliyaviy investitsiyalar mavjudligi belgilangan tartibda o'tkazilgan inventarizatsiya va zarur dastlabki hujjatlar bilan tasdiqlangan; barcha moliyaviy investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va hisobotida to'liq aks ettirilishi, hisobga olinmay qolgan moliyaviy investitsiyalar yo'qligi; moliyaviy investitsiyalar hisobga olinadigan sintetik schyotlar qoldig'i va oborotlarining tegishli analitik hisob schyotlari qoldiq va oborotlariga mos kelishi; o'chirilish faktlarining barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirilishi schyotlar bo'yicha qoldiq va oborotlarning buxgalteriya hisobi registrlaridan Bosh daftarga va moliyaviy hisobotlariga to'liq hajmda o'tkazilishi; moliyaviy investitsiyalar kirimi va hisobdan
2.	Baholash	Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha xarajatlar hujjatli tasdiqlangan bo'lishi, sintetik va analitik hisoblarda aks ettirilishi, qimmatli qog'ozlarni sotib olish usuliga ko'ra ularning qiymati me'yoriy hujjatlarga muvofiq shakllantirilgan bo'lishi lozim. Ularni hisobotda aks ettirish uchun me'yoriy hujjatlar talabiga muvofiq baholangan.	Moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar) buxgalteriya hisobi va hisobotida me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq baholangan; chet el valutasidagi qimmatli qog'ozlarni so'mda baholash amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq o'tkazilgan; qimmatli qog'ozlarni sotib olish usuliga ko'ra ularning haqiqiy qiymati me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgan; qimmatli qog'ozlar qiymati buxgalteriya hisobotiga kiritish uchun me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq va to'g'ri hisoblab chiqarilgan (bozor bahosi pasayishini hisobga olgan holda); qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushum buxgalteriya hisobida dastlabki hujjatlardagi ma'lumotlarga mos bahoda aks ettirilgan
3.	Huquq va	Subyekt moliyaviy in	Subyekt moliyaviy investitsiyalar uchun tegishli

	majburiy atlar	vestitsiyalar bo'yicha tegishli huquqlarga ega. Buxgalteriya balansida aks ettirilgan qimmatli qog'ozlar subyektga te gishligi to'g'risida barcha guvohnomalar mavjud. Moliyaviy investitsiya larga egalik qilish huquq lari tegishli shartnomalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, qimmat li qog'ozlar va boshqalar bo'yicha tekshiriladi	huquqlarga ega va ushbu huquqlar bilan bog'liq xavf-xatar uchun mas'uldir; buxgalteriya hisobida aks ettirilgan moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar va berilgan qarzlar) subyektga qonun asosida tegishlidir; buxgalteriya balansida aks ettirilgan qimmatli qog'ozlar subyektga mulkiy huquq asosida tegishli bo'lib, tegishli huquq talablariga mos shartnomani amalga oshirish natijasida olgan hamda subyekt qimmatli qog'ozlar olinganligini tasdiqlovchi barcha zarur guvohliklarga ega; buxgalteriya hisobi schyotlaridagi barcha yozuvlar amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan. Isbotlovchi va dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan; moliyaviy investitsiyalarga doir barcha muomalalar amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan batlar sharoitidan kelib chiqadi
4.	Taqdim etish va yoritish	Barcha moliyaviy inves titsiyalar to'g'ri turkum langan, ular to'g'risidagi axborotlar buxgalteriya hisobotlarida ochib beril gan. Auditor investitsiya larning miqdori, yo'nail shi va maqsadga muvo iqligini tahlil qilishi ham da ular hisobda to'g'ri aks etilganligini o'rganib chiqishi lozim	Barcha moliyaviy investitsiyalar to'g'ri turkumlangan va buxgalteriya hisobotida mohiyati ochib berilgan; moliyaviy investitsiya turlari va qaytarish muddatlariga ko'ra turkumlangan; moliyaviy investitsiyalarni sotish va qaytarish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda to'g'ri turkumlangan; moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi axborotlar buxgalteriya hisobotlariga biriktiriladigan tushuntirishlarda ochib berilgan

Xulosa qilib aytganda, tekshiriladigan masalalar bo'yicha etarli dalillarga ega bo'lish aniqlangan xatoliklarni mustaqil baholash, yo'l qo'yilga kamchiliklarni hamda amaldagi me'yoriy hujjatlar, shuningdek qonunchilikdan chetga chiqishlarni aniqlashga imkon beradi.

Subyektning moliyaviy investitsiyalardan oladigan daromadlari 9520- «Dividend ko`rinishidagi daromadlar», 9530 - «Foiz ko`rinishidagi daromadlar» va 9560 - «Qimmatli qog`ozlarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar» schyotlarida hisobga olinadi va «Mahsulot (ish, xizmat) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risidagi Nizom» ga muvofiq moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qatoriga kiritiladi. «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi... to`g`risidagi Nizom» da «Sarflangan (qimmatli qog`ozlarga, shuba subyektlarga va h.k.larga) mablag`larni qayta baholashdan olingan daromadlar»<sup>1</sup> ni qayta baholashdan ko`rilgan zararlar qimmatli qog`ozlarga qilingan investitsiyalar va shu'ba subyektlarga berilgan mablag`larni har chorakda (yilda) qayta baholash, ya'ni ularni balansda bozor bahosi bo'yicha aks ettirish tavsiya etiladi. Ammo, bunday hisob yuritish siyosatiga qimmatli qog`ozlar bozori keng rivojlanganda erishilib, bozor qiymati haqida muntazam axborotlar mavjud sharoitda bo`lishi mumkin.

Auditor sotib olingan qimmatli qog`ozlardan tashqari subyektning o`zida chiqarilgan qimmatli qog`ozlar saqlanishi ham mumkinligini bilishi zarur. Bunday qimmatli qog`ozlar o`z jamoasi a'zolariga sotilguncha yoki birjaga berilgunga qadar 006-«qat'iy hisobot blankalari» degan balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.

Qo`shimcha daromad olish maqsadida ikkilamchi sotish uchun birjada sotib olingan yoki jismoniy shaxslardan (masalan, subyekt xodimi ishdan bo`shab ketayotganida) sotib olingan subyekt aksiyalari quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi, qimmatli qog`ozlarning xarid qiymatiga:

Debet 8620 - «Sotib olingan xususiy aksiyalar - imtiyozli»,

Kredit 5000 - «Kassadagi pul mablag`larini hisobga oluvchi schyotlar».

Subyekt aksiyalarini ikkilamchi sotish quyidagicha aks ettiriladi, ikkilamchi sotish qiymatiga:

Debet 5000 - «Kassadagi pul mablag`larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Debet 5100 - «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag`larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Debet 5200 - «Chet el valutasidagi pul mablag`larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Kredit 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi». - qimmatli qog`ozlarning xarid bahosiga:

Debet 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»,

Kredit 5610 - «Pul ekvivalentlari» (turlari bo`yicha).

- ikkilamchi sotish qiymatining xarid bahosidan oshgan qismiga:

Debet 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi»,

Kredit 9590 - «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari».

Agar harid qiymati ikkilamchi sotish qiymatidan yuqori bo`lsa, u holda:

Debet 9690 - « Moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa xarajatlar»,

Kredit 9220 - «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».

Auditor bunday hollarda samarasiz moliyaviy muomalalar amalga oshirilganligining obyektiv (balki subyektiv) sabablarini aniqlashi, oqilona ish yuritilganda yo`l qo`yilmasligi mumkin yo`qotishlar ko`lamini aniqlashi va bu haqda direktorlar kengashida yoki aktsiyadorlar majlisida bildirishi zarur. Boshqa subyektlarning ustav kapitaliga hissa qo`shish ko`rinishidagi qilingan moliyaviy investitsiyalar auditi ushbu subyektlar ustavlarini tahlil qilib, daromad olish shartlarini hamda bunday investitsiyalar samaradorligining to`g`riligi va hisobda to`liq aks ettirilganligini aniqlashdan iborat.

Moliyaviy investitsiyalar boshqa subyektlar faoliyatida hissa qo`shib ishtirok etish, aksiyalar bo`yicha dividendlar va obligatsiyalar bo`yicha daromadlar olish maqsadida amalga oshirilib, hisobda quyidagicha aks ettiriladi, olingan dividendlar (foizlar) summasiga:

Debet 5100 - «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag`larini hisobga oluvchi schyotlar»,

Debet 5200 - «Chet el valutasidagi schyotlarni hisobga oluvchi schyotlar»,

Kredit 9520 - «Dividendlar ko`rinishidagi daromadlar» yoki,

Kredit 9530 - «Foizlar ko`rinishidagi daromadlar».

Daromadlarning to`liq aks ettirilganligini tekshirishda, ularning miqdori buxgalteriyada hisobga olish maqsadida quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo`lganda tan olinadi:

- subyekt ushbu daromadlarni olish huquqiga ega;
- daromadlar summasi aniqlangan bo`lishi mumkin;
- muayyan muomala natijasida subyekt iqtisodiy manfaatining ko`payishiga ishonch bo`lganida.

Subyektning moliyaviy investitsiyalardan olgan barcha daromadlari soliqqa tortish maqsadida ikkita guruhga bo`linadi:

- umum qabul qilingan tartibda realizatsiyadan tashqari daromadlar tarkibida soliqqa tortiladigan daromadlar (hamkorliqdagi faoliyatdan olingan daromadlar);
- maxsus tartibda soliqqa tortiladigan daromadlar. Bularga aksiyador - subyektga tegishli va bu qimmatli qog`ozlar egasining emitent - subyekt foydasini taqsimlashda ishtirok etish huquqini tasdiqlovchi aksiyalar bo`yicha olingan daromadlar;

O`zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog`ozlari va mahalliy organlar qimmatli qog`ozlari; O`zbekiston Respublikasi hududida tashkil qilingan boshqa subyektlar ustav kapitalida hissa qo`shib ishtirok etishdan olingan daromadlar. Bunday daromadlar belgilangan foiz stavka bo`yicha soliqqa tortiladi va daromadlarni to`lash manbalaridan to`lanadi.

Qimmatli qog`ozlar bozori rivojlangan davlatlarda dividend daromadining 15-25 % bo`lishi normal holat bo`lib hisoblanadi. Inflatsiya kuzatilayotgan sharoitda esa bu ko`rsatkich birdan katta (ya'ni 100 % va undan yuqori) bo`lishi mumkin.

Aksiyalar bozor bahosining ular nominal qiymatiga nisbatan yildan-yilga o`sib borishi ham subyekt rahbariyatining oqilona ish yuritayotganligidan dalolat beradi. Qimmatli qog`ozlarga daromad hisoblanganda (olinadigan daromad miqdorida) buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1.Obligatsiyalar uchun olinadigan foizlar:

Debet 4830 - “Olinadigan foizlar”,

Kredit 9530 - “Foiz ko`rinishidagi daromadlar”.

2.Aktsiyalar uchun olinadigan dividendlar:

Debet 4840 - “Olinadigan dividendlar”,

Kredit 9520 - “Dividend ko`rinishidagi daromadlar”.

Qimmatli qog`ozlarga dividend hisoblanganda xalqaro moliyaviy hisobotlar standartiga muvofiq ikkita usuldan foydalanish mumkin:

1.Qiymat usuli. Ushbu usul qo`llanganda, investor o`z mablag`ini boshqa subyektga dastlabki qiymati bo`yicha qo`yadi. Uning asosiy tamoyillari shundan iboratki, investitsiyalar qiymati shuba tuzilmalarning moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar o`zgarmaydi, ulardan olinadigan dividendlar bosh jamiyat daromadi sifatida hisobga olinadi. Bu usulni quyidagi hollarda qo`llash tavsiya etiladi: - shuba jamiyatini keyinchalik yaqin kelajakda sotish uchun olingan va uni nazorat qilish ham vaqtinchalik bo`lganda;

- shuba jamiyati uning bosh jamiyatiga mablag` o`tkazish qobiliyatini jiddiy darajada kamaytiradigan belgilangan uzoq muddatli muhim sharoitlar doirasida faoliyat yuritganda. Masalan, shuba jamiyatiga qarz bergan tashkilot tomonidan qo`yiladigan dividendlarni to`lashda cheklashlar mavjud bo`lishi mumkin.

2. Ulushbay ishtirok usuli. Bu usulni bosh jamiyat tomonidan shuba jamiyatga sezilarli darajada ta'sir o`tkazish va nazorat qilish hollarida qo`llash tavsiya qilinadi, u quyidagilardan iborat:

- investitsiyalarning joriy qiymati shuba jamiyatning xojalik faoliyati natijalariga bog`liqlikda o`zgaradi: u foyda olganda investitsiyalar qiymati oshadi, zarar esa kamayadi;

- bosh jamiyat investitsiyalardan foydani egalik ulushiga mutanosib ravishda aks ettiriladi: uning shuba jamiyatidagi ulushi qancha ko`p bo`lsa, bosh jamiyat balansida investitsiyalar qiymati shuncha ko`p summaga oshiriladi;

- olingan dividendlar daromad sifatida qaralmaydi, balki investitsiyalar qiymatini kamaytirish tarzida ifodalanadi. Misol. «Bosh jamiyat shuba jamiyatning

aksiyalarini 60 %ni 28000 ming so`m nominal qiymati bo`yicha sotib oldi va buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuvlarni amalga oshirdi:

Debet 0620 - «Shuba xojalik jamiyatlariga investitsiyalar» - 28000,

Kredit 5110 - «Hisob-kitob raqami» - 28000.

Hisobot yili tugagach, sho`ba jamiyati 4400 ming so`m sof foyda oladi va u bosh jamiyat nazoratida bo`lganligi bois investitsiyalar qiymatining oshganligini hamda daromad summasini egalik ulushiga mutanosib ravishda,  $(4400 \times 60\%)$  2640 ming so`mni buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiradi:

Debet 0620 - «Shuba xojalik jamiyatlariga investitsiyalar» - 2640,

Kredit 9590 - «Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar» - 2640.

3.3. INVESTITSIIYA AUDITIDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH MASALALARI

Respublikamizdagi bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari va uning keying bosqichlarida ustivor yo'nalishlarning belgilanishi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy hayotni, jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirish mulkdorlar sinfini tashkil qilishdan kelib chiqqan holda bir qancha yangi malakali mutaxassislariga, nazariy va amaliy kurslarga, fanlarga ehtiyoj tug'iladi. Shulardan eng muhimi audit fani va auditorlik kasbidir. Ushbu sohada g'arb mamlakatlarida katta tajriba to'plangan.

Auditor (lotincha «auditor» - «eshituvchi», «o'quvchi» degan ma'nolarni anglatadi) – ma'lum muddat davrida korxona moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi shaxsdir. Auditor so'zining lug'aviy ma'nosi ham uning iqtisodiy ma'nosiga ancha yaqin. O'rta asrlarda o'quv yurtlarida sinf, guruh ichida boshqa o'quvchilarga nisbatan bilimi kuchli, zukko o'quvchilarni auditor deb ham atashgan. Shu toifadagi o'quvchilarga boshqa o'quvchilarning darslarni qanday bajarayotganligini bilimlarni qay darajada o'zlashtirayotganligi kabilarni tekshirish vazifalari yuklatilgan. Mana shu holatdan ko'rinib turibdiki, auditorni mijozning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirib, uning ishonchini qozonadigan shaxs desa ham bo'ladi.

Bozor infratuzilmasi unsurlari ichida auditorlik kompaniyalarining roli va tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Angliya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham ma'lumki, auditorlik kompaniyalari bozor infratuzilmasi unsurlarining zanjirli tizimida asosi xalqalardan biri bo'lib hisoblanadi. Auditorlik kompaniyalari korporatsiyalar, firmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi tuzilmalarning ishlab chiqarish, moliya-xo'jalik faoliyatida muomalalarning to'g'ri amalga oshirilganligini tasdiqlab, mijozlarning ularga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Auditorlik firmalari bozor infratuzilmasining eng muhim unsurlaridan biri bo'lib, ular mulkdorlar va davlatning mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida mustaqil moliyaviy nazoratni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti taraqqiy etgan Evropa va Amerika mamlakatlarida auditorlik faoliyati ko'p asrlik tajribaga ega. Audit rivojlangan huquqiy iqtisodiyot va zamonaviy huquqiy jamiyat sifatida aynan Evropada shakllangan (uning tarixi juda katta bo'lib, alohida tadqiqot obekti bo'lishi mumkin). Auditning xalqaro nazariyasi va amaliyoti raqobatli kurash sharoitida yuzaga kelgan. Xalqaro amaliyotda ularning barchasi tegishli tadqiqotlar va keng ommaviy muhokamalar bilan birga olib borilgan. Natijada, hozirgi davrga kelib auditning mustahkam xalqaro huquqiy asosi yaratildi, uni tashkil etishning batafsil shakllari ishlab chiqildi, auditorlar uchun keng ko'lamdagi uslubiy materiallar nashr qilinmoqda va doimiy ravishda to'ldirib borilmoqda. Ularda auditorlik faoliyatining asosiy tushunchalari, terminlari va kategoriyalari ta'riflangan va turkumlangan.

Respublikamizdagi auditorlik tashkilotlarining to'plangan tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, u yaqqol ifodalangan milliy xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, xorijiy manbalardagi qoidalar O'zbekistonda auditorlik faoliyatining barpo bo'lishi va rivojlantirilishi uchun foydali hamda qiziqarli ekanligini ta'kidlash joizdir. Chunonchi, bizning respublikamizda ham xalqaro tajribani hisobga olgan holda

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1999-2003 yillarda 18 ta auditorlik faoliyati milliy standarti (AFMS) ishlab chiqildi va Adliya vazirligida

ro'yxatdan o'tkazilib, auditorlik amaliyotida qo'llanilmoqda hamda ularni ishlab chiqish davom etmoqda. Xorijiy olimlar auditning dastavval G'arbda ham faqat buxgalteriya hujjatlari va hisobotlarini tekshirish va tasdiqlashdan iborat faoliyat sifatida shakllanganligini tan oladilar. Auditorlar asosan dastlabki hujjatlarni, buxgalteriya hisobi registrilarini hamda ular asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni tekshirgan va tasdiqlagan (yoki tasdiqlamagan). Masalan, Roy Dobj fikricha, auditorlik faoliyati so'nggi 25 yilda uch evolyutsion bosqichni bosib o'tgan: birinchi – tasdiqlovchi audit; ikkinchi – sistemali yo'naltirilgan audit; va nihoyat, so'nggisi, uchinchi – riskka asoslangan audit.

Demak, keyinchalik auditorlik faoliyati ma'lum bir tizimga solingan (aniq maqsadga yo'naltirilgan). Bunda amaliyotdagi professional-auditorlar buxgalteriya hujjatlari va yozuvlarini tuzuvchi hamda qo'llovchi kishilar orasidagi (o'z mijozlari biznesining tashkilotchilari va ijrochilari o'rtasidagi) munosabatlarni o'rgana boshlaganlar. Ular xatolarning oldini olish maqsadida har bir mijoz-korxona boshqaruv tizimining va birinchi navbatda ichki nazorat tizimi, xususan, ichki auditning samaradorligini oshirishga asosiy e'tiborni qarata boshladilar. Agar mijoz-korxonadagi ichki nazorat ma'lum darajada bo'sh bo'lsa, butun tekshiriladigan davr uchun hisobotdagi ko'plab xatolar va noaniqliklarni bartaraf etishga yordam bermasa, u holda amaliyotchi auditorlar sistemali yo'naltirilgan audit printsiplariga rioya qilgan holda ko'rsatilgan kamchiliklarni tugatish bo'yicha mijozga keng ko'lamdagi tavsiyalar berib, unga konstruktiv yordam ko'rsatadi. Bu esa hisobning aniqligi va hisobot ma'lumotlarining ishonchliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, auditorlik faoliyatiga sistemali yondashuv audit sifatining kafolatiga aylangan.

Va nihoyat, zamonaviy audit, asosan xalqaro amaliyotda – risk (tavakkalchilik)ka asoslangan audit vujudga kelgan. Bu nafaqat tasdiqlovchi auditning, balki maqsadli-sistemali auditning ham, ammo ko'proq statistik yoki nostatistik tanlab tekshirishga asoslangan jarayondir. Bizning respublikamizda auditorlik faoliyatiga statistik usullarni tadbiiq qilish, aniqrog'i, auditorlik

statistikasini fan tarmog'i sifatida shakllantirishga ilmiy negiz mavjud va uni rivojlantirish istiqbolga ega.

G'arb mamlakatlarida, masalan, AQShda, buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan printsiplari – BXUP – (GAAP – Generally Accepted Accounting Principles) tizimiga rioya qilish barcha buxgalterlar va auditorlar uchun majburiy hisoblanadi. AQSh ning o'zida buxgalteriya hisobi standartlari uzoq vaqt ommaviy muhokama qilinganidan so'ng, mustaqil kengash – Financial Accounting Standards Board (FASB) tomonidan tasdiqlanadi. Buxgalteriya hisobi standartlari bilan birga audit standartlari ham qo'llaniladi. AQShda ular auditning umumqabul qilingan standartlari – AUS (GAAS – Generally

Accepted Auditing Standards) deb ataladi. Ular auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazishda hamda uchraydigan muammolarni hal etishda qo'llaniladi. Standartlar Amerika qasamyod qilgan buxgalterlar instituti – AQBI (AICPA American Institute of certified Public Accountants) ning maxsus bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan. Ular mamlakatdagi barcha buxgalterlar uchun majburiy hisoblanadi. Standartlarga rioya qilinmagan hollarda sudlar va auditorlar ustidan nazorat qiluvchi boshqa organlar ular faoliyatini to'xtatishga haqlidir.

XX asrning ikkinchi yarmi hamda XXI asr dastlabki yillari jahon mamlakatlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan izohlanadi. Xalqaro maydonda iqtisodiy munosabatlarning tobora chuqurlashib borishi jahonning turli mintaqalarida erkin iqtisodiy zonalarining vujudga kelishiga va transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kuchayishiga turtki berdi. Biznes va aloqalarning jahon mamlakatlari bo'ylab baynalmilallashuvi buxgalteriya hisobi va audit tizimining ham xalqaro ko'rinishga ega bo'lishiga olib keldi. Shunday bir sharoitda transmilliy korporatsiyalar va ularning jahonning boshqa mamlakatlaridagi bo'linmalari o'rtasida hisob va audit tizimini yuritishda yangicha tartib ishlab chiqilishini taqozo qildi. Turli mamlakatlarda auditorlik faoliyatiga turlicha yondoshilishiga qaramasdan, jahon xo'jaligi va moliya bozorlarining baynalmilallashuvi kuchayib borayotganligini aks ettiruvchi unifikatsiyalangan qoidalarni ishlab chiqish zarur (9-rasm).

Buxgalteriya hisobi va audit tizimining modellari

Britan-Amerika modeli	Kontinental model	Janubiy Amerika modeli
•Avstraliya, AQSh, Barbados, Benin, Buyuk Britaniya, Venesuela, Kipr, Dominikan, Zambiya, Isroil, Hindiston, Indoneziya, Panama, Irlandiya, Kanada, Keniya, Kolumbiya, Malayziya, Meksika, Nigeriya, Fidji, Niderlandiya, JAR, Pokiston, Singapur, Tanzaniya, Filippin, Yamayka	•Avstriya, Angola, Belgiya, BurkinaFaso, Gvineya, Gretsiya, Daniya, Jazoir, Misr, Zair, Ispaniya, Italiya, Kamerun, Mali, Lyuksemburg, Marokash, Norvegiya, Portugaliya, Togo, Senegal, Sera-Leone, Frantsiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Yaponiya	•Argentina, Boliviya, Braziliya, Gayana, Paragvay, Peru, Urugvay, Chili, Ekvador

9-rasm. Buxgalteriya hisobi va audit tizimining modellari

Ma'lumki, xalqaro audit standartlari jahon mamlakatlarida turlicha qo'llaniladi. Bunga asosiy sabab, ushbu mamlakatlarda buxgalteriya hisobining turlicha modellari amal qilishidadir. Olimlarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda dunyoda buxgalteriya hisobi va audit tizimining quyidagi modellari mavjud:

Jahon mamlakatlarda buxgalteriya hisobi va audit tizimining turlicha yuritilishi hisob va audit sohasida standartlarni muvofiqlashtirish va tatbiq etishni taqozo etdi. Xususan, bu tadbir bilan IAPS shug'ullanadi. IFAC huzuridagi Xalqaro auditorlik amaliyoti qo'mitasi (IAPS) auditorlik faoliyati kam taraqqiy etgan davlatlarda ushbu kasbning mavqeini ko'tarish maqsadida xalqaro auditorlik standartlarini qo'llashni muvofiqlashtirib turadi. Bugungi kunga kelib xalqaro audit standartlarini jahon mamlakatlari bo'yicha qo'llanilish darajasiga ko'ra quyidagi ko'rinishi mavjud (10-rasm):

Xalqaro auditorlik standartlari (XAS)ning qo'llanilish darajasi

XASning faqat ma'lumot uchun ishlatilishi	XAS milliy standartlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi	XAS to'lig'icha amal qiladi, milliy standartlar mavjud emas
•AQSh, Kanada, Buyuk, Britaniya	•Avstraliya, Braziliya	•Malayziya, Nigeriya

10-rasm. Xalqaro auditorlik standartlari (XAS)ning qo'llanilish darajasi

AQSh, Kanada va Buyuk Britaniyaning auditorlik faoliyatida milliy standartlar amal qilib, xalqaro auditorlik standartlaridan ma'lumot uchun foydalaniladi. Avstraliya, Braziliya, Niderlandiya va boshqa davlatlarda xalqaro auditorlik standartlari milliy auditorlik standartlarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham xalqaro audit standartlari asosida auditning milliy standartlari ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda. Malayziya va Nigeriyada milliy standartlar ishlab chiqilmaydi, ularning auditorlik amaliyotida xalqaro standartlar to'lig'icha amal qiladi. Har bir mamlakatda auditning standartlarini ishlab chiqishda maxsus tashkilotlar faoliyat yuritadi. Masalan, AQShda standartlarni ishlab chiqish bilan Moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiquvchi kengash (FASB) shug'ullanadi. Ushbu standartlarning amalda qo'llanilishini nazorat qilish hukumatning Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha komissiyasi (SEC) zimmasiga yuklatilgan. FASB va SECning o'zaro hamkorligi tufayli AQShda audit standartlari qo'llanilishining samarali mexanizmi yaratilgan.

Auditning vatani hisoblangan Buyuk Britaniyada esa buxgalteriya hisobi va audit siyosati asosan nohukumat tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Shu boisdan AQSh va Buyuk Britaniyada qabul qilingan audit standartlari bir-biriga mos tushmaydi.

Frantsiyada auditning milliy standartlarini Milliy kompaniya qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu davlatda qabul qilinadigan auditning milliy standartlari xalqaro standartlarga to'lig'icha mos keladi, ayrim mutaxassislarning

aytishicha, Frantsiyada qabul qilinadigan milliy standartlar «Xalqaro standartlarning frantsuzcha varianti» deb yuritiladi. Umuman olganda, xalqaro auditorlik standartlari jahon miqyosida audit tizimini unifikatsiyalashga xizmat qiladi. Respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish yoʻlida auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish hamda milliy auditorlik standartlarini qabul qilish jarayonida yuqorida sanab oʻtilgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

IV BOB. KORXONADA HAYOT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Bizning mamlakatimizda bugungi kunda ijtimoiy sohaga katta e'tibor berilib kelmoqda. Strategik qadamlardan biri bu inson mehnat muhofazasini zamon talablariga mos ravishda olib borish, ish o'rinlarida xodimlarning xavfsizlik darajalarini kamaytirish va xavf –hatarning oldini olish eng dolzarb vazifalar sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

«PULSAR GROUP BREWERY» MChJda mehnatni muxofaza qilish bo'limi va alohida xavfsizlik bo'limi mavjud. Ushbu bo'lim boshliqlari o'z ish faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi xududida belgilangan tartiblar asosida amalga oshiriladi. Bular:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 8 dekabr 1992 yil qabul qilingan;
- O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 21dekabr 1995 yil
- “Mehnatni muxofaza qilish to'g'risida”gi Qonun 6 may 1993 yil
- Xavfsizlik texnika qoidalari.

«PULSAR GROUP BREWERY» MChJda mehnatni muhofaza qilish bo'limi (bo'lim boshlig'i vazifasini bajaruvchi Shukurov Bobir) tomonidan mehnatni muhofaza qilish burchagi va fuqaro muhofazasi burchagi tashkil etilgan (16-jadvalga qarang).

5-jadval

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH BURChAGI

Yo'l-yo'riqlar (instruktajlar turlari)	3-bosqichli nazorat tekshiruvi	Mehnat muhofazasi bo'yicha xodimning majburiyatlari	Mehnat muhofazasi bo'yicha xodimning huquqlari
-KIRISH	1-BOSQICH	Mehnat muhofa-zasi	-Ma'muriyat ish
-ISH JOYIDA	Smena rahbarlari (bekat navbatchisi, brigadirlar va bosh-qalar) MMQ vakillari har smena boshlanishi oldin-dan (yuqori daraja-da va xavfli ishlar bajarilganda smena davomida)	bo'yicha qonunda belgilangan va jamoa shartnomada ko'rsatilgan yo'riqnomalar va qoidalarni bajarish,	joylarining ahvoli to'g'ri-sida ma'lumot talab qilish
-BIRLAMCHI		-ish joyini MMQ qoidalari, me'yorlari bo'yicha tashkil etish	-sog'lig'i yomon-lashuvini sezsa navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan o'tishni talab qilish.
-JORIY		-mehnat qonunli-gi, ichki mehnat qoidalari va tartib intizomga rioya qilish.	- tarmoq me'yor-lari bo'yicha himoya vositalar-ni ta'minlashni talab qilish.
-DAVRIY	2-BOSQICH	Shaxsiy va jamoaviy ximoya vositalaridan foydalanish	O'zi ishlayotgan ish joyida belgilangan imtiyozlar va to'lovlar to'g'risida axborot olish.
-NAVBATDAN TASHQARI	O'rta bug'in rahbar-lari (masterlar, bekat boshlig'i va muovnlari, uchastka boshliqlari TSEXKOM PROFGRUPPORG MMQ vakillari	-shaxsiy gigiena talablariga rioya qilish	- baxtsiz xodisalar va kasbiy – shikastlanishlar bo'yicha majburiyat sug'urta qilish.
	3-BOSQICH	-o'quv yo'riq im-tihonlaridan vaqtida o'tish.	
	Korxona rahbariyati korxona kasaba uyushma raisi MMQ muhandisi MMQ vakillari 2-oyda bir marta	-birinchi bilishi va qo'lay olishi	
		-har qanday ish-lovchining sog'li-g'i va hayotiga xavf soluvchi holatlar va baxt-siz xodisalar to'g'risida o'z rah-barini habardor qilish	

Har bir ishga qabul qilinayotgan ishchi xodimlar bilan tikilgan va muxrlangan varag'i sanoqdan o'tkazilgan mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik bo'yicha chora tadbirlari bilan tanishtirish bo'yicha qayd etish jurnali tashkil etilgan.

Ishga olingan xodimlar bilan har oyda mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha instruktaj olib boriladi va ushbu xatti- xarakatlar ham ish joylarda instruktaj o'tkazishni qayd etuvchi jurnal tutiladi.

Instruktaj bo'yicha jurnal nomerlangan, tikilgan va jurnalni yurgizish bo'yicha ma'sul shaxsning imzosi va MChJ muhri bilan tasdiqlangan. Jurnalda har bir ishchi xodim uchun alohida satr ochilgan va instruktaj nomeri va turi, xodimning to'liq ismi familiyasi va ishlab turgan lavozimi to'liq yozilgan. Jurnalning 6 – ustuni rejadan tashqari instruktaj o'tkazilgan taqdirda, 10,11,12- ustunlari esa birinchi marta ishchi xodim bilan instruktaj o'tkazilgan taqdirda to'ldiriladi.

«PULSAR GROUP BREWERY» MChJda kasaba uyushma qo'mitasi raisi va texnik masalalari direktor tomonidan Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda mehnatni muhofaza qilish yo'riqnomasi tasdiqlangan (7-rasmga qarang).

«PULSAR GROUP BREWERY» MChJda yong'in xavfsizligi bo'yicha ham bir qator ishlar qilingan. Yong'in xavfsizligi burchagi tashkil etilgan va avtomobillar gaz balonlarini ta'mirlash va qayta ko'rikan o'tkazish tartibi tasdiqlangan. Ular 12-ilovada keltirilgan.

Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasi adliya Vazirligi bilan kelishilgan (2011 yil 23 dekabrda №6–24/11-13112/6) va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan 2011 yil 23 noyabrda №258-sonli "Bosim ostida ishlaydigan idishlarni tuzilishi va ularni havfsiz ekspluatatsiya qilish qoidalarini" (bundan keyin matnda – Qoidalar) me'yoriy texnik hujjati talablarini bajarish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, siqilgan va suyultirilgan gazlarni -50 °Sdan +50 °Sgacha haroratlarda tashish va saqlash uchun mo'ljallagan uglerodli va legirlangan po'latdan yasalgan qo'llanishda bo'lgan avtomobil gaz balonlarini (bundan keyin matnda – balonlar) qayta ko'rikdan o'tkazishga tadbiriq etiladi.

Ushbu Tartibda qo'yidagi asosiy terminlar va ta'riflar qo'llaniladi:

Ballon – ventil, flans yoki shtuserlar o'rnatish uchun bitta yoki ikkita og'izga ega, siqilgan, suyultirilgan yoki bosim ostida eritilgan gazlarni tashish va saqlash uchun mo'ljallagan idish.

Hajm – chizmalarda keltirilgan shartli o'lchamlarga ko'ra aniqlanadigan idishning ichki hajmi.

Sig'im egasi – idish mulkida bo'lgan tashkilot, xususiy tadbirkor yoki shaxs.

Ichki (tashqi) bosim – idish devorining ichki (tashqi) sirtiga ta'sir etuvchi bosim.

Sinash bosimi – idishning sinovlari olib boriladigan bosim.

Ishchi bosim – ishchi jarayonning normal kechishida hosil bo'ladigan eng ko'p ortiqcha ichki yoki tashqi bosim.

Hisoblangan bosim – mustahkamlikka hisoblash olib boriladigan bosim.

Shartli bosim – standart idishlarni (qismlar, detallar, armaturalar) mustahkamlikka hisoblashda qo'llaniladigan 20 °S haroratda hisoblangan bosim.

Devorning ruxsat etilgan eng ko'p (eng kam) harorati – idishni qo'llash ruxsat etiladigan devorlarning eng ko'p (eng kam) harorati.

Tub – ichki sirtni chetidan chegaralovchi idish korpusining qismi.

Tiqin – shtuser yoki bobishkani germetik mahkamlash imkonini beradigan hajmli detal.

Zmeevik – egilgan quvurlar ko'rinishida yasalgan issiqlik almashinuv uskunasini.

Ortiqcha bosim – barometr ko'rsatgan absolyut bosim va atrof muhit bosimi o'rtasidagi farq.

Korpus – yondevor va sirtlardan iborat asosiy yig'ma birlik.

Kompozitsion material (kompozit) – bir nechta bir jinsli materiallar (tarkibiy qismlar) dan iborat bir jinsli bo'lmagan tarkibiy qismdagi material.

Qopqoq – idishning ichki sirti yoki lyuk teshigini yopuvchi ajralmas qism.

Normativ hujjatlar (NH) – loyixalash, tayyorlash, ta'mirlash, qayta ta'mirlash, yig'ish, sozlash, texnik diagnostika (ko'rikdan o'tkazish), qo'llash buyicha qoidalar, davlat standartlari, texnik shartlar, rahbariy hujjatlar

Bir jinsli material – bitta modda, qorishma yoki qattiq eritmadan iborat material, misol uchun: shisha, po'lat, sopol va h.k.

Qoldiq man'ba – ob'ektni texnik xolatini nazorat qilishni boshlashdan oxirgi xolatigacha ishlash davri

Tayanch – idishni ishchi holatda o'rnatish va yuklamani idishdan asos yoki ko'tarib turuvchi konstruksiyaga uzatish uchun qurilma.

Idishning (elementning) ruxsat etilgan bosimi – idishning texnik ko'rikdan o'tkazish yoki diagnostika natijalariga ko'ra o'rnatilgan eng ko'p ruxsat etilgan ortiqcha bosimi.

Idishning hisoblangan xizmat qilish muddati – idish qo'llashga kiritilgan kundan boshlab hisoblanadigan kalendar yillarida hisoblanadigan xizmat qilish muddati.

Idishning (elementning) hisoblangan resursi – ishlab chiqaruvchi yuriqnomasida qo'rsatilgan qo'llash rejimlari va sovuq yoki issiq holatdagi hisoblangan ishga tushirish shartlariga rioya etilganda idishning (elementning) ishlab chiqaruvchi kafolat beradigan qo'llash davriyligi.

Idishning xizmat muddati – idishni oxirgi xolatgacha qo'llashning kalendar yillaridagi muddati

Flansli birikma – germetikligi zichlovchi sirtlarni to'g'ridan to'g'ri bir biriga siqish yoki ular orasida joylashgan yumshoqroq nisbatan materialdan tayyorlangan prokladkalar orqali siqilgan mahkamlovchi detallar orqali ta'minlanadigan, idishning qo'zg'almas ochiladigan birikmasi

Idish – kimyoviy, issiqlik va boshqa texnologik jarayonlarni olib borish, shuningdek gazsimon, suyuq va boshqa moddalarni saqlash uchun mo'ljallangan germetik yopiq sig'im. Idishning chegarasi bo'lib, kirish va chiqish shtuserlari hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni rivojlantirishi, yangi bosqichga ko'tarishi, investitsiya keng jalb qilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun korxonalarga kiritilgan investitsiya to'g'ri hisobga olingan va audit tekshiruvlaridan o'tkazilishi bo'lishi kerak. Magistrlik dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida xulosalar qilindi va takliflar ishlab chiqildi.

Birinchi, iqtisodiyotga investitsiyalarning kiritilishi ishlab chiqarishning oshishiga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmining o'sishi o'z-o'zidan ishsizlik, YaIM, inflatsiya va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi, investitsiyalarning kiritilishi pul aylanish tezligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotda pul qanchalik tez aylansa, daromad shunchalik yuqori bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalarning asosiy maqsadi ham yuqori daromad olib, maksimal foydaga erishishdir.

Uchinchi, pul mobilizatsiyasini ta'minlashda, ayniqsa jismoniy shaxslar qo'lidagi pul mablag'larining o'z vaqtida, maqsadli ishlatilishi, ya'ni investitsion loyihalarni moliyalashtirishda aholi qo'lidagi bo'sh pul mablag'larining keng jalb qilinishi ham aholi daromadlarining oshishiga ham korxonalar faoliyati kengayishiga olib keladi.

To'rtinchi, investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida jamiyat uchun ijtimoiy va iqtisodiy samaraga erishiladi. Masalan, meditsina sohasini rivojlantirish uchun sarflangan pul mablag'lari jamiyatda insonlar salomatligini ta'minlash nuqtayi nazardan ijtimoiy naf, aholiga pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish nuqtayi nazardan iqtisodiy naf hisoblanadi.

Bugungi kunda korxonalarga jalb etilayotgan investitsiyalarning hajmi mamlakatda yaratilgan investitsion muhitga va investorlarning sarflayotgan mablag'laridan foyda olish imkoniyatini yuqori darajada kafolatlanishiga bog'liqdir. Respublikamizda bu borada qator ishlar amalga oshirilgan va hozirda ham davom etmoqda. Shunday bo'lsa ham iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan investitsiyalarning hajmini yanada oshirish borasida hali ko'plab ishlar amalga

oshirilishi lozim deb o'ylaymiz. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida investitsiyalar hajmini yanada oshirish bilan bog'liq quyidagi takliflar kelib chiqdi:

- Mamlaktda investitsiya faoliyatini tashkil etish va investorlar uchun yanada ko'proq imkoniyatlar yaratish uchun mavjud huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

- Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish maqsadida zamonaviy talablarga javob beradigan xizmat ko'rsatish komplekslarini yaratishga chet el investitsiyalarini yanada kengroq jalb etish;

- Qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarida zamonaviy mashina va uskunalarni, texnika va texnologiyalarni agrosanoatda taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda xorijiy investorlar tomonidan jalb etishni yanada kuchaytirish;

- Qishloq joylarida kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda, zamonaviy uylar qurishda ichki investitsiyalar bilan birga tashqi investitsiyalarni ham ko'proq jalb etish;

- Xorijiy investitsiya asosida faoliyat yuritayotgan va eksport uchun mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalar sonini oshirish maqsadida davlat tomonidan berilayotgan imtiyoz va rag'batlantirishlarni yanada kuchaytirish.

Korxonalarda investitsiyalarning samaradorligini oshirishda va korxonalar foydasini maksimallashtirishda investitsiyalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilishini audit qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Magistrlik dissertatsiya amalga oshirish jarayonida biz quyidagi xulosalarga keldik va tavsiyalar ishlab chiqdik:

1. Turli mulkdagi korxonaning iqtisodiy rivojlanishi, ularda mavjud bo'lgan moliyaviy va mehnat resurslardan samarali foydalanishga bog'liq. Korxonaning mablag'lar tarkibida investitsiyalar muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda respublikamizda qulay investitsiyalar muhiti yaratilgan. Shuning uchun iqtisodiyot tarmoqlariga ko'plab investitsiyalar, shu jumladan xorijiy investitsiyalar kiritilmoqda.

2. Qo'shma korxonasi O'zbekiston - Chexiya mas'uliyati cheklangan qo'shma korxonasi «Pulsar Group Brewery» Ltd. kompaniyasi Yanvar 18, 2014 umumiy yig'ilishining qarori bilan yaratgan va qator 0137 ostida hokimiyati organlarida ro'yxatdan o'tgan.
3. Korxonaning bozorga o'tish sharoitida, buxgalteriya hisobi majburiyatlarning to'liq va ishonchli ma'lumotlarini olish va bu ma'lumotni foydalanuvchilarga o'z vaqtida etkazib berishning eng muhim vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi.
4. "Investitsiya faoliyati to'g'risida" gi qonunga muvofiq, sarmoyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga investitsiya kiritadigan moddiy va nomoddiy imtiyozlar va ularga bo'lgan huquqlardir.
5. Uzoq muddatli investitsiyalarni qayta baholashda qayta baholash qiymatlari qayta baholashdan olingan daromad sifatida kapitalga kiritiladi. Moliyaviy investitsiyalarning qiymatining pasayishi bilan, bu korsatkichda aks ettirilgan investitsiyalarni qayta baholash qiymatiga bog'liq. Agar moliyaviy investitsiyalar qiymatining pasayishi miqdori qayta qiymatdan tushadigan daromad miqdoridan oshsa, bu farq xarajat sifatida e'tirof etiladi. Qiymati pasaygan investitsiyalarni qayta baholash miqdori bir xil investitsiyadan tushgan zararlardan keyin kapitalning oshishiga mos keladi.
6. Moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobi BHMS 12-moddasi tomonidan belgilanadi, u ularni "daromad olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan saqlanadigan aktivlar (manfaatdorlik, royalti, dividend va ijara shaklida), investitsion kapitalning qiymatini oshirish yoki investitsiya kompaniyasining boshqa imtiyozlarini olish uchun" deb belgilab qo'yildi. BHMS № 12 ularni joriy (qisqa muddatli) va uzoq muddatli dasturlarga anglatadi.
7. Moliyaviy investitsiyalar haqida ma'lumot manbalari: aktsiyadorlar reestriga ko'chirma nusxalari, boshqa korxonalarga berilgan depozitlar miqdori, aktsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi

sertifikatlar, qimmatli qog'ozlarni qabul qilish yoki topshirish shartnomalari, depozit shartnomalari, qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olish kitobi, to'lov topshiriqlari va arizalari, 0600, 5800, 4800, 5100, 5000, 5500 va boshqa hisob guruhlari bo'yicha kassa buyurtmalari, hisob yozuvlari (buyurtma jurnallari, mashina yozuvlari, bosh noutbuklar va boshqalar)

8. Bosh rejada quyidagilar tavsiya etiladi: Audit guruhini shakllantirish, auditga jalb qilinadigan auditorlarning soni va malakasi; Auditorning professional fazilatlariga va rasmiy darajalariga muvofiq auditning muayyan yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi; Barcha jamoa a'zolariga o'zlarining vazifalari haqida ko'rsatma berib, ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan tanishtirish, shuningdek, umumiy audit rejasining qoidalari bilan tanishtirish; Auditorlarni ish rejasining bajarilishi va auditorlik yordamchilarining ish sifati bajarilishini nazorat qilish, ishchi hujjatlarni boshqarish va audit natijalarini to'g'ri ro'yxatga olish; Audit tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq metodologik masalalar bo'yicha audit guruhi rahbari tomonidan tushuntirish; Auditorlik guruhi va uning a'zosi o'rtasida haqiqatni baholashda kelishmovchilik bo'lgan taqdirda audit guruhi (ijrochisi) a'zosining alohida fikrini hujjatlash.
9. "Pulsar Group Brewery" MChJ QK korxonasida 2015 yil 1 dekabr holatiga audit tekshiruvi o'tkazildi. Buxoro shahrida istiqomat qiluvchi "Progress Audit" mas'uliyati cheklangan jamiyatining Auditorlik xulosasini auditor Alimdjanova S.S. tomonidan berildi. Alimdjanova S.S. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2010 yil 22 04828-sonli "Progress Audit" auditorlik tashkiloti nomidan ish yurituvchi sertifikat asosida ish olib boruvchi auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun sertifikatlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 4 dekabrda 351-son bilan va O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2008 yil 25-fevralda berilgan auditorlik tekshirish huquqini beruvchi № 00310-sonli litsenziya.

10. Auditorlik tekshiruvi davomida 2015 yil 1 dekabr holatiga "Pulsar Group Brewery" MChJ QQ tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy hisobotlari uning moliyaviy ahvolini ishonchli tarzda aks ettirishi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan moliya-xo'jalik faoliyati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga javob berishi aniqlandi.
11. Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, biz investitsiya auditini takomillashtirish bo'yicha bir qator takliflar ishlab chiqdik:
 1. Buxgalteriya siyosatini ishlab chiqish, unga investitsiyalarni hisoblash parametrlarini kiritish va uni amalga oshirish ustidan nazoratni kuchaytirish
 2. Buxgalteriya bo'limi xodimlarini malakasini oshirish kurslariga yuborilsin.
 3. Ish rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish
 4. Birlamchi hujjatlar va hisobga olish registrilarini tayyorlash ustidan nazoratni kuchaytirish
 5. Korxonada investitsiya hisob raqamlari yo'q. Birlamchi hujjatlarni tayyorlash ustidan nazoratni kuchaytirish zarur
 6. Buxgalteriya hisobi "1C: Predpriyatiye" avtomatlashtirilgan buxgalterlik dasturining yangi zamonaviy versiyalariga to'liq o'tish
- 8.3.
7. Investitsion faoliyatini audit qilinishdan oldin xalqaro standartlardan keng foydalanish kerak buning uchun buxgalteriya hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlarga o'tishi kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonuni. T.: Norma. 2016 yil. 13 aprel. (yangi taxriri)
3. O'zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonuni.2000 yil. 26 may. (Yangi tahrir). T.: Norma. 2015.
4. O'zbekiston Respublikasining “Soliq Kodeksi”.2008 yil 24 aprelda tasdiqlangan (o'zgartirishlar bilan). T.: Norma. 2015.
5. O'zbekiston Respublikasining “Xorijiy investitsiyalar to'g'risida”gi Qonuni. – T.: Adolat, 1998.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2699-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 3 noyabr kuni Vazirlar Mahkamasida 2018 yilning kutilayotgan yakunlari hamda O'zbekiston Respublikasining 2019 yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi, soliq va byudjet siyosati konsepsiyasi, Davlat byudjeti loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish ma'ruzasi.
8. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi. O'zbekiston Prezidenti 7-fevral kungi farmoni

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalar

9. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”.- T.:O'zbekiston.2017.
10. Mirziyoev Sh.M. “Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi” 2017.

IV. Boshqa me‘yoriy hujjatlar

11. 21-son BHMS «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma» O‘z.R.Adliya Vazirligidan 2002 yil 23-oktyabrda ro‘yxatdan o‘tgan, № 1181.
12. “Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish” O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 16 yanvarda 596-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan
13. 3-sonli AFMS “Auditni rejalashtirish”. O‘zR. AV tomonidan 1999-yil 10-noyabrda ro‘yxatga olingan. № 837.
14. 9-sonli “Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi” AFMS. O‘zR Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 3 sentyabrda 813-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.
15. 12-son "Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash" nomli AFMS. O‘zR Adliya vazirligida 2007 yil 12 aprelda 1673-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.
16. 70-son AFMS “Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi auditorlik xulosasi”. O‘zR. AV tomonidan 2001-yil 10-martda ro‘yxatga olingan, № 1016

V. Xorijiy adabiyotlar

17. E.A. Arenc, Dj.K. Loobek “Audit”: Per. s angl.; Gl. redaktor serii prof. Ya.V. Sokolov. - M.: Finansi i statistika, 2001. - 7 s: il. - (Seriya po buxgalterskomu uchetu i auditu).
18. Podolskiy V.I., Polyak G.B, Savin A.A. i dr. Audit. Uchebnik. – 3-ye izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – 186 s.
19. Audit: uchebnik /pod red. Buligi R.P.-2-ye izd., pererab. i dop. – M.: “YUNITI – DANA”, - 2011. – 431 str.
20. Podolskiy V. Audit. Uchebnik. – M.: Izd. Yurayt, 2010. – 605 str.
21. Sbornik Mejdunarodnix standartov audita i kontrolya kachestva: per. s angl. –

T.: NNO “Palata auditorov O'zbekistana”, 2011.

22. Parushina N.I. i dr. Audit. Uchebnik. – M.: ID Forum-Infra-M, 2008. – 288 str.

23. Ensiklopediya obshego audita. Uchebnik. Tom №2.– M.: Delo i servis, 1999

VI. Asosiy adabiyotlar

24. “Audit” (darslik). Tulaxodjayeva M.M., Ilxomov Sh.I. va bosh. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.

25. “Audit” (darslik). Tulaxodjayeva M.M., Ilxomov Sh.I. va bosh. ToshkentDIU. DeHause Print, 2011.– 583 b.

26. Audit. Darslik //Tulaxodjayeva M.M., Ilxomov Sh.I. va bosh. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. Audit. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2012. – 184 b.

27. .Abdulkarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 1-qism. – T.: Fan va texnologiya, 2007;

28. Abdullayev R.A. Buxgalterskiy uchets i audit.:Tashkent, 2011;

29. Dustmurodov R.D. Audit asoslari. Darslik. : T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003; To‘laxodjayeva M.M.Audit, T.: BAMA, 2014;

30. Musayev X.N. Audit. Darslik.: Toshkent, Moliya 2003.;

31. Urazov K.B.,Vohidov S.V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Darslik. :T.: Adib, 2011.

32. Urazov K.B. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. Ma’ruzalar matni. 1-qism. – Samarqand, SamISI, 2005, 5-bet

33. Fayziyev Sh., Karimov A. Audit. Uchebnoye posobiye. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. – 328 s.

34. Qudratov G‘. H, Pardayev M.K. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. - T.: Iqtisod-moliya, 2008;

35. Shodmonov A.Sh.. “Iqtisodiyot nazariyasi” “Toshkent fan va texnologiya” nashriyoti. 2005. 130-bet.

36. Iqtisod fanlari doktori, professor Tulaxodjaeva M.M. «Audit» (darslik). Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. Iqtisodiyot, 2011 y. – 581 b.

37. Internet saytlari

38. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasining davlat portali.

39. www.mineconomu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining sayti

40. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

41. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo‘mitasining sayti.

42. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari sayti.

43. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining sayti.

44. www.norma.uz – Xalqaro mehnat tashkilotining sayti.

45. www.google.co.uz

46. www.buhgalteriya.ru.

47. www.docaudit.ru.

Bajardi: Olimov Muhammad

Ilovalar